

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDADI QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy
ish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun IV «B» guruh talabasi**

**MAHMUDOVA DILRABOXONNING
“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA USLUBIY
BO‘YOQDOR SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI
(3-SINF MISOLIDA)” MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: Z.Isaqov,
dotsent**

Q O ‘ Q O N – 2 0 1 2

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV “B” guruh talabasi Mahmudova Dilraxonning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni o‘rgatish metodikasi (3-sinf misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

H A Q I D A

Uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarning o‘zbek tilining boyligini qanchalar o‘z nutqiga singdira olishlari ishda yoritishga harakat qilingan. Belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun talaba bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzib, shu asosda ishni bayon eta olgan. Ishni bayon etishda fikrlar ketma-ketligiga rioya qilingan. Har bir bo‘lim yuzasidan to‘g‘ri xulosalar chiqarilgan va umumiy xulosalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar o‘rinli berilgan.

Ishning umumiy tavsifi qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, ishning nazariy, amaliy ahamiyati, ishning sinalishi to‘la ochilgan.

Ishning birinchi bobida o‘zbek tilining emotsional leksik qatlami, uslubiy betaraf so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati, so‘zga uslubiy bo‘yoqdorlikning qo‘shilishi, uslubiy bo‘yoqdorlikni hosil qiluvchi vositalar, belgini kuchaytirish semasining qo‘shilishi, neytral va emotsional leksik birliklar paradigmasi ochib berilgan.

Ikkinchi bobda uchinchi sinf o‘qish darsligidagi she‘riy, epik, ilmiy-ommabop asarlarni o‘tishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlash metodikasi amaliy yoritilgan bo‘lib, muallifning shaxsiy amaliyoti davridagi tajribalari tahlil asosida keltirilgan.

Xulosa qismida uchinchi sinf o‘qish darslarida uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlash mobaynida o‘quvchilarning til hushyorliklarini oshirishning ma‘naviy-axloqiy ahamiyati haqida gap ketadi va to‘g‘ri xulosalar chiqariladi.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar asosli dalillangan. Amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratgan. Biroq, ishda ayrim kamchiliklar: imloviy va tinish belgiga oid xatoliklar ko‘zga tashlanadi.

Ishdagi ayrim yetishmovchiliklar bitiruv malakaviy ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmaydi, ish oliy maktab BMI talablariga mosligini hisobga olib, ishni himoyaga tavsiya etaman

Ish rahbari:

Z.Isaqov

BTM kafedrası dotsenti.

7- aprel 2012- yil.

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti 5141600 – “Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” ta‘lim yo‘nalishi IV “B” guruh talabasi Mahmudova Dilraxonning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni o‘rgatish metodikasi (3-sinf misolida)” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Emotsional so‘zlarning o‘rganilishi tilshunosligimizda bir qancha murakkabligi bilan ko‘zga tashlanib turadi, lekin bu jarayonda hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammoli o‘rinlar turgani aniqligi his etilgan holda tadqiqotga maqsadli yondashilgan. Ishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni 3-sinf “O‘qish kitobi” badiiy matnlarida berilishi va ularning vazifasini aniqlash, o‘quvchilarga yetkazish metodikasini tahlil qilish, tilda ular qanday vazifalar bajarishi tadqiqot ishida o‘z ifodasini topa olgan.

Talaba ishda emotsional so‘zlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini to‘plash, o‘rganilgan ma‘lumotlardagi o‘xshash va farqli jihatlarni yoritib berish, emotsional leksikani hosil qiluvchi vositalarni o‘rganish, ularning badiiy adabiyotda ifodalanishini tekshirish, emotsional leksik birliklar va neytral so‘zlarning o‘xshash va farqli xususiyatlarini ko‘rsatib berish, tahlil qilish, uchinchi sinf o‘qish darsligidagi she‘riy asarlarni o‘tishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlash metodikasini tahlil etish, epik turga mansub asarlarni o‘rgatishda buyoqdor so‘zlar ustida ishlash yo‘llari bilan o‘rtoqlashish, ilmiy-ommabop matnlarni o‘tishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlash usullarini taklif etish kabi zaruriy vazifalarni o‘z oldiga qo‘yib, ularni keng va atroflicha tahlil eta olib, ishni mazmunli bayon qila olgan.

Talaba bitiruv malakaviy ish mavzusiga mos reja tuzib, shu asosda ishni bayon eta olgan. Ishni bayon etishda fikrlar ketma-ketligiga rioya qilingan va umumiy xulosalar berilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati ham maqsadga muvofiq tarzda keltirilib, ishda adabiyotlardan maqsadli foydalanilgan, ko‘chirmalar o‘rinli berilgan.

Ishda keltirilgan fikrlar, ko‘chirmalar dalillangan. Amaliy ishlarni yoritishga keng joy ajratgan. Biroq, ishni diqqat bilan kuzatganimizda, quyidagi kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

1. Ishning ayrim o‘rinlarida imloviy, uslubiy va tinish belgilariga oid nuqsonlar uchraydi.

2. Ayrim o‘rinlarda bayonchilikka berilgan va oqibatda shakl-mazmun birligi biroz buzilgan.

Ishdagi ayrim kamchiliklar bitiruv malakaviy ishning mazmuniga katta ta‘sir qilmasligini hisobga olib, ishni ijobiy baholash mumkin.

Taqrizchi:

N.Oxunov,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti.
14- may 2012- yil.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shubhasiz, jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishimizning zarur sharti va mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, u bir qudratli lokomotiv yanlig‘ iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish, yuksak malakali kadrlar tayyorlash, yangi ishchi o‘rinlarini yaratish, bir so‘z bilan aytganda, barcha korxonalarni rivojlanish va taraqqiyot sari boshlashga qodirdir.

Islom Karimov.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA USLUBIY BO‘YOQDOR
SO‘ZLARNI O‘RGATISH METODIKASI (3-sinf misolida)
M U N D A R I J A**

Ishning umumiy tavsifi.....	4
I bob. O‘zbek tilining emotsional leksik qatlami.....	8
1-§. Uslubiy betaraf so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati.....	8
2-§. So‘zga uslubiy bo‘yoqdorlikning qo‘shilishi.....	9
3-§. Uslubiy bo‘yoqdorlikni hosil qiluvchi vositalar.....	13
4-§. Belgini kuchaytirish semasining qo‘shilishi.....	31
5-§. Neytral va emotsional leksik birliklar paradigmasi.....	33
II. BOB. 1-§. Uchinchi sinf o‘qish darsligidagi she’riy asarlarni o‘tishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlash metodikasi.....	39
2-§. Uchinchi sinf o‘qish darsligidagi epik turga mansub asarlarni o‘rgatishda buyoqdor so‘zlar ustida ishlash yo‘llari.....	49
3-§. Uchinchi sinf o‘qish darsligidagi ilmiy-ommabop matnlarni o‘tishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlash.....	58
Xulosa. Uchinchi sinf o‘qish darslarida uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan ishlashning ma’naviy-axloqiy ahamiyati.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70
Lug‘atlar.....	72

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Madhiyada serquyosh, hur o‘lkam, oltin vodiylar, O‘zbekiston so‘zlari dunyo mamlakatlari ichida Vatanimizni ajratib ko‘rsatishga ishlatiladi. Sevimli o‘lkamiz o‘zining quyoshsevar bo‘lganligi sababli unda etishtirilgan meva-yu poliz ekinlari dunyo ahlini lol qoldiradi. Mevasi kabi shirali xalqimiz ham mustaqillik tufayli olamni xayron-u lol qiladigan darajada buyuklikka erishdi. Shu sabab Vatanimizning 20 yillik to‘yini “Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!” shiori ostida bejiz nishonlamadik.

Istiqlol tufayli, uning jasur me‘mori bo‘lmish Yurtboshimiz tufayli o‘zbek tili o‘z nufuzi va obro‘yini tikladi. Ammo, xolisanlillo aytish joizki, bunga erishish osonlikcha bo‘lgani yo‘q.

O‘zbek tilshunosligi leksikologiyasiga nazar tashlar ekanmiz, emotsional so‘zlar unda katta ahamiyat kasb etishini sezish qiyin emas. Bunday so‘zlardan foydalanish tilimizda anchayin o‘ziga xosliklarni keltirib chiqaradi. So‘zlovchi nutqining qanchalik jonli, tabiiy chiqishini tildagi emotsional so‘zlar belgilab beradi.

Biz ilmiy ishimizga mavzu tanlash jarayonida leksikologiyaning chuqur o‘rganilgan va kamroq tadqiq etilgan tomonlari to‘g‘risida munozaraga kirishdik. Izlanishlarimizdan shuni sezdikki, emotsional so‘zlarning o‘rganilishi tilshunosligimizda bir qancha murakkabligi bilan ko‘zga tashlanib turar ekan, lekin bu jarayonda hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan muammoli o‘rinlar turgani bizning e‘tiborimizni tortdi.

Emotsional so‘zlardan 3-sinf “O‘qish kitobi”dagi badiiy adabiyotlarda foydalanish, uning ahamiyati, belgi va harakat-holat tezligini kuchaytirish semasining qo‘shilishi, ularning qaysi vositalar yordamida hosil bo‘lishini o‘rganish orqali tilimizning imkoniyatlari yanada keng ekanini sezish qiyin bo‘lmaydi, nazarimda.

Uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarni 3-sinf “O‘qish kitobi” badiiy matnlarida berilishi va ularning vazifasini aniqlash, o‘quvchilarga etkazish metodikasini tahlil qilish, tilda ular qanday vazifalar bajarishi tadqiqot ishimizda o‘z ifodasini topadi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoning ishlanganlik darajasi. 3-sinf “O‘qish kitobi” badiiy matnlaridagi uslubiy bo‘yoqdor so‘zlarning o‘qitilishi yuzasidan metodik ishlar hali-hanuz tadqiq etilmagan. Ammo, emotsional leksikaning tilda mavjud holatlari bir qancha tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biz ilmiy ishimizni yoritishda F.Q.Kamolov¹, S.Usmonov², X.Doniyorov³, SH.Rahmatullaev⁴, M.Mirtojiyev⁵lar-ning shu sohaga oid tadqiqotlaridan foydalandik.

Tadqiqotimizga doir adabiyotlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, o‘zbek tilining leksikologiyasiga oid to‘liq va munozaraga yo‘l ochgan fikr-mulohazalar 1981- yil “Fan” nashriyotida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti tilshunoslari tomonidan yaratilgan “O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida o‘z aksini topgan. Ushbu kitobning “O‘zbek tili leksikasining stilistik qatlamlari” qismini filologiya fanlari nomzodi S.G‘oyibov ishlab chiqqan⁶.

Ekspressiv bo‘yoqlik o‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlari tarkibida namoyon bo‘lgani sabab, biz ishimizda A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”⁷ga ham murojaat qildik. Undagi sinonimlar qatoriga nazar tashlar ekansiz, sinonimik qatordagi ekspressiv bo‘yoqqa ega so‘zning ma’nosi va unga keltirilgan misollar orqali uning boshqa sinonim so‘zlardan ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan tomoni yaqqol ko‘zga tashlanishini kuzatdik. Ular bosh so‘z orqali bog‘lanib turadi.

¹ Hozirgi o‘zbek adabiy tili. G‘.Abdurahmonov umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Fan, 1966. – 392 b.

² Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 256 b.

³ Shoabdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 448 b.

⁴ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 400 b.

⁵ Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 288 b.

⁶ O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.3.

⁷ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 308 b.

Ishning maqsad va vazifalari. BMIning maqsadi:

- emotsional soʻzlar nazariyasini yoritish;
- emotsional soʻzlardan 3-sinf “Oʻqish kitobi”da foydalanishning ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqot vazifalari:

- emotsional soʻzlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarini toʻplash, oʻrganilgan maʼlumotlardagi oʻxshash va farqli jihatlarni yoritib berish;
- emotsional leksikani hosil qiluvchi vositalarni oʻrganish, ularning badiiy adabiyotda ifodalanishini tekshirish;
- emotsional leksik birliklar va neytral soʻzlarning oʻxshash va farqli xususiyatlarini koʻrsatib berish, tahlil qilish;
- uchinchi sinf oʻqish darsligidagi sheʼriy asarlarni oʻtishda uslubiy boʻyoqdor soʻzlar bilan ishlash metodikasini tahlil etish;
- uchinchi sinf oʻqish darsligidagi epik turga mansub asarlarni oʻrgatishda boʻyoqdor soʻzlar ustida ishlash yoʻllari bilan oʻrtoqlashish;
- uchinchi sinf oʻqish darsligidagi ilmiy-ommabop matnlarni oʻtishda uslubiy boʻyoqdor soʻzlar bilan ishlash usullarini taklif etish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot metodologiyasini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Tadqiqotni amalga oshirishda analiz qilish, sintez qilish, qiyoslash, uzviy tahlil, distributsiya, zidlovga qoʻyish va boshqa metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- tilda emotsional soʻzlardan toʻgʻri, aniq va oʻrinli foydalanishni taʼminlashga erishish;
- belgini kuchaytirish semasining qoʻshilishini ochib berish, uning badiiy nutqlarda ifodalanganlik darajalarini tekshirish;
- uchinchi sinf darsligi matnlarida ifodalangan emotsional birliklarning xususiyatlari, asar mohiyatini ochib berishda qay darajada rol oʻynagani toʻgʻrisida maʼlumotlar berish;

- emotsional birliklarning badiiy nutqda va ogʻzaki nutqdagi oʻrni toʻgʻrisida mulohaza yuritish, misollar orqali ularni ochib berish.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Uchinchi sinf oʻqish darslarida uslubiy boʻyoqdor soʻzlarning berilishi hamda ular bilan oʻquvchilarni tanishtirish haqida nazariy maʼlumotlar keng va atroflicha oʻrtaga tashlandi, bu maʼlumotlardan boshlangʻich sinflarda sinfda oʻqish mashgʻulotlarida nazariy material sifatida foydalanish mumkin. Ishdan amaliy jihatdan oʻrta maktabning boshlangʻich taʼlimida va pedagogika institutlarining tegishli boʻlimlari talabalari bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi loyihalari uchun material sifatida hamda malakaviy amaliyoti davomida amaliy foydalanishlari mumkin.

Ishning sinalishi va natijalarining ommalashtirilishi. Ish amaliy jihatdan 2011/2012- oʻquv yilining ikkinchi yarmida malakaviy amaliyot paytida umumiy taʼlim maktabning boshlangʻich sinf oʻqish darslarida sinovdan oʻtkazilgan, ish yuzasidan oʻtkazilgan ochiq darsimiz ilgʻor boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari va institut metodistlari tomonidan ijobiy bahalanganligi sababli tadqiqotimiz yuzasidan berilgan tavsiyalardan keng miqyosda foydalanish oʻqitishdagi muammolarni echishga yordam beradi, deb ishonch bildiramiz.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, ikki asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va lugʻatdan iborat.

Ishning umumiy hajmi 75 sahifani tashkil qiladi.

I BOB.

O‘ZBEK TILINING EMOTSIONAL LEKSIK QATLAMI

1-§. USLUBIY BETARAF SO‘ZLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

Barcha nutq uslublarida birdek qo‘llanaveradigan so‘zlar stillararo leksik qatlamni tashkil etadi. “Stillararo” atamasi bu leksik qatlamning barcha nutq uslubida befarq qo‘llanaverish xususiyatini aks ettiradi. Stillararo leksik qatlamga oid so‘zlar emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik jihatdan betaraf neytral holatdadir. “Neytral” atamasi bu leksik qatlamning mana shu xususiyatiga ishora qiladi. Stillararo leksika borliq hodisalarining asl nomini anglatadi. Neytral leksika umumleksikaning asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham barcha muhim hayotiy predmet, hodisa, harakat, holat, belgi, xususiyat tushunchalari neytral leksika orqali ifodalanadi: *osh, non, yuz, ko‘z, quloq, uy, tun, gapirmoq, yozmoq, husn, ichmoq, emoq, uxlamoq, ishonch, o‘y* va b.

Stillararo leksika ma‘lum nutq uslubiga xos bo‘lgan bo‘yoqdorlikdan mahrum, lekin bu hol mazkur leksika umuman ifodalilik, tasviriylikdan mahrum, degan xulosaga olib kelmasligi kerak⁸.

Stilistik nuqtai nazardan neytral bo‘lgan leksika har xil so‘z turkumlaridan bo‘lishi mumkin.

Ot: *xizmat, qarilik, mehnat, so‘z, ish, haq, yigit, uyqu, odam, quda, sevgi, osh, non, uy, gul, shodlik, g‘azab, va‘da, oila, xotin, aql, ko‘chat, paxta, don, meva, ot, tish, choynak, qog‘oz, elka, nasihat, ixtiyor, bola, havo, bulut* va b.

Sifat: *yaxshi, yomon, tiniq, qiziq, ko‘k, qora, yangi, xushchaqchaq, kechki, kuzgi, bahoriy, devoriy, baland, achchiq, shirin, badqovoq* va b.

Fe‘l: *o‘qimoq, yozmoq, ishlamoq, yugurmoq, qurmoq, eshitmoq, sezmoq, bormoq, kelmoq, aytmoq, gapirmoq, bilmoq, kiyinmoq, topmoq, sevmοq, xafalanmoq, kesatmoq, yashirmoq, turmoq, uxlamoq, pichirlamoq, quvmoq, tutmoq, erkalamoq, chiqmoq, chitirlamoq, o‘pirmoq, o‘tmoq* va b.

⁸ O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent – Fan, 1981. – B.182.

Son: *bir, ikki, o'n, o'n besh, yigirma, o'ttiz, qirq, ming* va b.

Olmosh: *men, sen, u, biz, siz, ular, hamma, barcha, kimdir, nimadir, hech kim, hech qachon* va b.

Ravish: *tez, asta, ertalab, tobora, kechqurun, noiloj, indin, birisi kuni* va b.

Ko'makchi: *uchun, bilan, orqasida, kabi, singari, sari;*

Yuklama: *-a, -mi, axir, xuddi;*

Bog'lovchi: *chunki, shuning uchun, ammo, lekin, biroq, ham..ham* va b.

Mustaqil va yordamchi so'zlarning juda ko'pchilik qismi neytral leksikani tashkil qiladi. Bulardan undov va yuklamalar ancha keskin farq qiladi. Ular tabiatan ma'lum emotsiya ifodalashga xizmat qilganliklari uchun hech qachon neytral leksik qatlamga mansub bo'la olmaydi.

Shunday qilib, neytral leksika har qanday nutq uslubida qo'llanaveradigan leksikadir. Stilistik jihatdan chegaralangan, ya'ni funksional jihatdan farqli leksika faqat stilistik jihatdan neytral bo'lgan leksika fonidagina ajratilishi va shu fondagi emotsional-ekspressiv xususiyatlari aniq namoyon bo'lishi mumkin⁹.

2-§. SO'ZGA USLUBIY BO'YOQDORLIKNING QO'SHILISHI

O'zbek tili lug'at tarkibidagi ba'zi so'zlar so'zlovchining turli emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalash xususiyatiga ega, boshqalarida esa bunday xususiyat yo'q.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqsiz so'zlarda leksik ma'nodan tashqari, so'zlovchining turli munosabatini ifodalovchi qo'shimcha ottenka bo'lmaydi: *avval, ayb, ayyor, bosh, kambag'al, katta, ko'karmoq, mazali, muhtoj, ovora, ariq, urmoq, xunuk, yuz (bet), o'jar, qonmoq, g'irrom, husn* kabi so'zlar narsa, belgi, harakatning o'zini ifoda etadi, bularda so'zlovchining hech qanday munosabati ifodalanmaydi. Shu sababli bu xildagi leksika neytral leksika (stilistik neytral leksika) deb yuritiladi¹⁰.

⁹ O'sha kitob. B.184–185.

¹⁰ Shoabdurahmonov SH. ... Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.133–134.

Ma'lumki, tilning asosiy va birlamchi funksiyasi kommunikativ funksiyadir. Biroq, kishilar kommunikatsiya jarayonida faqat fikr almashish bilangina cheklanib qolmay, borliq voqea-hodisalariga o'z munosabatlarini ifodalashga ham intiladilar. Zero, "Kishilarning emotsiyalarisiz hech mahal kishilarda haqiqatni qidirish bo'lmagan, bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas".

Inson borliq hodisalarini idrok qilar ekan, bu hodisalar qaysidir jihatlari bilan o'zlariga nisbatan unda turli emotsiya (his)lar qo'zg'otadi. Bu hol, albatta, tilda o'z ifodasini topmay qolmaydi, chunki "Til borliq tilidir".

Darhaqiqat, lug'at tarkibidagi so'zlarni kuzatish ularning ba'zilari biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so'zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o'z bahosini, munosabatini ifodalashini ham ko'rsatadi. Bu munosabat doirasiga g'azab, erkalash, qoyil qolish, nafratlanish, jirkanish, kinoya kabi xilma-xil emotsional munosabat ko'rinishlari kiradi. Xususan, *azamat, o'ktam, qoyilmaqom, so'lqildoq, boplamoq, olchoq, mal'un, razil, satang, sanqi, asfalasofin, miyonqi, qoyil, do'ndirma, momoqaymoq* kabi so'zlar, ma'lum tushuncha anglatishdan tashqari, so'zlovchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham ko'rsatib turadi. Bu baho elementi tinglovchi tomonidan ham odatda so'zlovchi nazarda tutgandagidek idrok etiladi.

Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksika, stilistik bo'yoqdor leksika, ekspressiv-stilistik leksika terminlari ostida o'rganilmoqda. Bunday atash, umuman olganda, ob'ektiv haqiqatga mos keladi, chunki bu xil atamalar bu tip leksikaning eng muhim jihatini – emotsional-ekspressiv baho elementiga ega ekanligini nazarda tutadi.

Hozirgi tilshunoslik fani tilning fikr almashuv quroligina bo'lib qolmay, emosiyalar ifodalash qobiliyatiga ham ega ekanligini tan oladi¹¹.

Emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar suyish, erkalash, g'azab, kinoya, tan berish va shu kabi munosabatlarni ifodalaydi. Bu munosabat asosiy belgisiga

¹¹ O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.160.

ko'ra ikki turli bo'ladi: ijobiy yoki salbiy. Shu munosabatni ifodalashiga ko'ra emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar ham ikki turga bo'linadi: 1) ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar; 2) salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar.

Ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar so'zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo'lgan turlicha ijobiy munosabatini ifodalaydi. Masalan,

Ona deganimda, oqsoch, jafokash

Munis va mehribon chehrang namoyon. (G'.G'ulom)

Odamni ochdan ham o'ldirmaydigan, qashshoqlikdan ham chiqarmaydigan bu kasb haqida xalq alomat gaplar to'qigan. (Asqad Muxtor) *U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi.* (M.Ismoilijon)

Salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoqdor so'zlar so'zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bo'lgan mensimaslik, nafrat va shu kabi salbiy munosabatni ifodalaydi. Masalan, *Ahmad Husayn har ikkisini bir vaqtlar ko'rgan edi. Ingliz ukki ko'z, karnay burun, kampir dahan, qiltiriq bo'yin, naynov edi.* (Oybek) *So'ngra dakkam-dukkam iflos tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi.* (Oybek)¹² *Sut ko'r qilgur, Gitler, oqpadar, qaydan bilsin farzand qadrini.*

SHu bilan birga tilshunoslikda emotsional leksika va emosiyalarni atovchi tushunchalarni qorishtirish hollari uchraydi. Emotsional leksika deyilganda, yuqorida keltirilgan so'zlar kabi negizning o'zi orqali anglatilayotgan voqea-hodisaga so'zlovchining sub'ektiv baho (emotsional) munosabatini anglatuvchi leksika nazarda tutilishi lozim. Holbuki, hislarni atovchi (ularning atamaları bo'lgan) leksika ham ba'zan emotsional leksika atamasi bilan yuritiladi. Masalan, *g'am, xafalik, g'azab, jirkanish, muhabbat, nafrat, jahl* kabi so'zlar shu atama bilan izohlanganini ko'rish mumkin.

Aynan shunday fikrlar turkologik tadqiqotlarda ham uchraydi. Xususan, ba'zi ishlarda *yaxshilik, yomonlik, sevmoq, qo'pollik, suluv, yomon* kabi so'zlar

¹² Shoabdurahmonov SH. ... Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B.134.

hissiyotni aniq ifodalaydigan leksika sifatida talqin qilinadi va tom ma'noda emotsional munosabat ifodalovchi *aylanay, o'ngmagan* kabi so'zlardan qat'iy farqlanmagan holda, bu ikki xil leksika bir xil leksik kategoriya sifatida qaraladi. O'zbek tili stilistikasini tadqiq qilishga bag'ishlangan ba'zi ishlarda ham *sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar* kabi so'zlar "o'z leksik ma'nosi bilan his-tuyg'u, kechinma va hayajon ifodalovchi so'zlar" sifatida baholanganini ko'rish mumkin. Bu so'zlardan faqat *hiylagar* so'zi emotsional baho elementiga ega. Umuman sanab o'tilgan so'zlarning ko'pchiligi (*g'am, hafalik, g'azab, sevinch, quvonch, jahl* kabilar) bevosita turli xil hissiyotlarni anglatishga xizmat qiladi, xolos. Shuning uchun bunday leksikani emotsional leksika sifatida baholash kabi nuqtai nazarga qo'shilib bo'lmaydi.

Bulardan tashqari, umuman na emosiyalarni atashga, na emotsional baho elementlariga ega bo'lmagan *do'st, o'rtoq, dushman, jinoyat, yolg'on, tuhmat, qardoshlik, partiya, tenglik, ozodlik, adolat* kabi so'zlar baho elementlariga, ijobiy yo salbiy munosabat ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan emotsional leksika sifatida baholanadi. Bu tipdagi leksika o'zlari anglatayotgan hodisalarga nisbatan so'zlovchining emotsional munosabat ifodalamasligini, ular go'yo emotsional xususiyatga, "tamg'a"ga egadek tuyulishini, ijtimoiy nuqtai nazardan ijobiy yo salbiy baholanadigan hodisalarni, jamiyatda qoralanuvchi yoki, aksincha, maqtovg'a loyiq bo'lgan hodisalarni atovchi leksika sifatida baholanmog'i kerak. Ba'zi ishlarda "ijobiy so'zlar" rubrikasi ostida *yaxshi, go'zal, xursand, saxiy, odil, kamtar* so'zlari, "salbiy so'zlar" rubrikasi ostida esa yuqorida keltirilgan so'zlarning antonimlari bo'lmish *yomon, xunuk, xafa, xasis, johil* kabi so'zlarning berilganini kuzatish mumkin. Bunda so'z anglatgan tushuncha bahosini so'zga til birligi sifatida beriladigan bahoga tenglashtirib qo'yilganini sezish qiyin emas. Darhaqiqat, adabiy til lug'at tarkibidagi barcha so'zlar til birligi sifatida "ijobiy"dir, chunki ular ma'lum tushunchalar anglatishga xizmat qiladi. So'zlar ifodalagan tushunchalarning qanday (salbiy yoki ijobiy) baholanishi esa butunlay boshqa hodisa bo'lib, keng ma'noda so'z anglatgan predmet, belgi va hodisaning

baholanishi demakdir. Xususan *go‘zal* so‘zi – ijobiy belgi nomini, *xunuk* so‘zi esa salbiy belgi nomini anglatadi, lekin bu so‘zlar til birligi sifatida shu (ijobiy yoki salbiy) xususiyatlarga ega bo‘lib qolmaydi¹³.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar narsa, belgi, harakat kabilarni atash bilan birga, so‘zlovchining narsa, belgi yoki harakatga bahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, yuqoridagi *bosh*, *xunuk*, *yuz*, *qonmoq* so‘zlari narsa, belgi va harakatning o‘zini bildirgani holda, ularning sinonimlari bo‘lmish *kalla*, *badbashara*, *chehra*, *miriqmoq* so‘zlari shu narsa, belgi, harakatlarga so‘zlovchining turlicha munosabatini ham ifodalaydi¹⁴.

Shunday qilib, o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi emosiya tushunchasiga aloqador bo‘lgan, emosiyalarni anglatuvchi (atovchi) leksik qatlamga mansub so‘zlarni, shuningdek, ijtimoiy nuqtai nazardan ijobiy yo salbiy baholanuvchi hodisalarni atovchi so‘zlarni tom ma’nodagi emotsional-ekspressiv leksikadan farqlamoq lozim.

3-§. USLUBIY BO‘YOQDORLIKNI HOSIL QILUVCHI VOSITALAR

Tilda emotsional-ekspressiv bo‘yoq to‘rt xil: 1) leksik, 2) so‘zni metaforik qo‘llash, 3) affiksatsiya, 4) kontekstual usullarda reallashadi.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoqning leksik usulda ifodalanishi.

Bu usulda stilistik bo‘yoq so‘z negizining o‘zi bilan ifodalanadi. Bu holda so‘zning o‘z leksik ma’nosida tabiatan, aslan baholash elementi mavjud bo‘ladi.

Tilda emosiyaning ifodalanishi doim ekspressivdir, biroq tildagi ekspressiya doim emotsional bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, emotsionallikning ekspressivlikka munosabati xususiy holatning umumiy holatga munosabatidekdir. Ba’zi olimlar yuqoridagi kabi holatlarni qayd etib yozadi: “Har qanday emotsionallik ekspressivlikdir. Shuning uchun fanda “emotsional-ekspressiv” atamasi qo‘llanadi”. Bunga qo‘shimcha qilib shuni aytish mumkinki, “ekspressiya”

¹³ O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.160–161.

¹⁴ Shoabdurahmonov SH... Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B.134- b.

soʻzining birinchi maʼnosi “ifodalilik” boʻlsa, ikkinchi maʼnosi “(his-hayajonlarning) namoyon boʻlish kuchi”dir. “Emotsional-ekspressiv” juft atama tarkibida ekspressiv soʻzi ifodalilikdan tashqari anglatilayotgan tushunchaga nisbatan soʻzlovchining emotsional munosabati kuchli namoyon boʻlishini ham bildiradi, yaʼni emotsional-ekspressiv termini lingvistik hodisa mohiyatini toʻla aks ettirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bu termini qoʻllash emosiyalarni atovchi va ijtimoiy nuqtai nazardan salbiy yo ijobiy baholanuvchi leksikaga oid soʻzlardan emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalovchi soʻzlarni aniq farqlashga yordam beradi.

Emotsional-ekspressiv boʻyoqdor leksika odatda oddiy soʻzlashuv nutqida (*valakisalang, valdirvasar, sangʻi, toʻpori, tentak, jinni* kabi) yoki kitobiy-poetik, tantanavor nutqda qoʻllanadi (*umumbashariy, hayratomuz, daho, porloq, rahnamo, parisiymo, purmaʼno* kabilar).

Soʻz ifodalagan ekspressivlikka koʻra odatda uch qatlam ajratiladi: neytral leksika, yuqori stilistik boʻyoqli leksika, past stilistik boʻyoqli leksika.

Soʻzlashuv leksikasiga oid emotsional-ekspressiv leksika odatda past stilistik boʻyoqqa, kitobiy leksikaga oid emotsional-ekspressiv leksika esa yuqori stilistik boʻyoqqa ega boʻladi. Umumisteʼmoldagi soʻzlar esa ekspressiv boʻyoqqa ega emaslar, shu jihatdan ular neytral leksikani tashkil etadi.

Emotsional-ekspressiv leksik qatlamga mansub soʻzlar voqea-hodisalarga soʻzlovchining subʼektiv emotsional munosabatini ifodalashi nuqtai nazaridan ikki katta guruhga ajratiladi: ijobiy munosabat anglatuvchi leksika va salbiy munosabat anglatuvchi leksika.

Ijobiy emotsional-ekspressiv munosabat anglatuvchi soʻzlar qatoriga quyidagilar kiradi: *azamat, qoyil, doʻndiq, doʻmbillamoq, doʻndirmoq, mahluqo, diloro, jilmaymoq, tabassum qilmoq, munavvar, porloq, nurafshon, ketvorgan, loabar, tamtam, dildor, dilbar, mard, tanti* kabilar.

Ijobiy maʼno ottenkalari nihoyatda rang-barangdir. Ular orasidan quyidagilarni ajratib koʻrsatish mumkin:

1) yuqori tantanavorlik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar: *daho, zako, abadul-abad, abad, alvido, mumtoz, marhabo, hayratomuz, g'azabkor, buzrukvor, olamshumul, oliymaqom (zot), jonbaxsh* kabilar;

2) yuqori poetik so'zlar: *tannoz, gulbadan, durafshon, afsungar, sayqal, bermoq, og'ush, qalqmoq, koshona, xirom, xushsurat, jilvakor, fusunkor, pariroy, oftobsiymo, hurmonand, oyparcha, hassos, lolagul, surur, nuroniy, malaksiymo, ajib, olijanob* kabilar.

Emotsional-ekspressiv ma'noli so'zlarda salbiy ma'no ottenkalarining turlari ijobiy ma'no ottenkalariga nisbatan ham ancha rang-barangligi bilan farqlanadi. Ba'zi ma'no ottenkalarini ko'rsatamiz:

1) nafratlanish ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar: *ustamon, tiyilmas, nomard, kelgindi, andi, ig'vogar, sharmanda, makkor, o'g'ri, kazzob, satang, surbet, qo'shmachi, yuvuqsiz, benomus, ebtoyimas, badkirdor, o'g'riboshi, xoin, nonko'r* kabilar;

2) haqorat anglatuvchi so'zlar: *dayus, g'ar, buzuq, fohisha, yuvundixor, yaloqi, iflos, yaramas, noinsof, ablah, murtad, kofir, ko'rnamak, murdor, o'laksa, ityaloq, la'nati, vatanfurush, imonsiz, oqpadar, olchoq, g'alamis, mal'un, haromi* kabilar;

3) nominativ ma'noga salbiy baho ottenkasi qo'shuvchi so'zlar: *vaysamoq, valaqlamoq, valdiramoq, sanqimoq, sakillamoq, daydimoq, tentiramoq, sulloh, mijg'ov, merov, dovdor, chaqchaymoq, bo'laymoq, bezraymoq, tirriq* kabilar;

4) mensimaslik ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'zlar: *tirrancha, mishiqi, shapshak, ham-ham qilmoq* kabilar.

Yuqorida keltirilgan so'zlar, nominativ (atash) funksiyadan tashqari o'zlari ifodalayotgan tushunchaga nisbatan so'zlovchining sub'ektiv bahosini ham ko'rsatib turadi. Ularning bu xususiyati emotsional-ekspressiv bo'yoq jihatdan neytral bo'lgan so'zlarga taqqoslaganda ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, *chiroyli* so'zi ma'lum tushunchani neytral bildiradi, *ketvorgan* so'zi esa *chiroyli* so'zi anglatgan tushunchani anglatish bilan birga, bu tushuncha

belgilarining ortiq darajada mavjudligini va soʻzlovchi ham nutq predmetiga loqayd qaramay, ortiq darajada ijobiy munosabatda ekanligini ifodalaydi. *Doʻndiq, doʻmboq, tamtam* va shu kabi soʻzlar ham ijobiy munosabatni yuqorida aytilgan usulda ifodalaydi: *Lutfiniso oppoq, yursa soʻlqillaydigan... toʻlagina qiz*. (Said Ahmad) Bu yerdagi *soʻlqillaydigan* soʻzi semiz tushunchasidan tashqari soʻzlovchi tomonidan ijobiy emotsional baholanish elementiga ham ega.

Shunday qilib, emotsional-ekspressiv leksik qatlamga oid soʻzlar, nominativ maʼno anglatishdan tashqari, bu maʼnoning doimiy va obʼektiv elementi boʻlgan, uning uzviy komponenti hisoblangan yorqin stilistik boʻyoqqa ega. Bu boʻyoq soʻzlovchining nutq predmetiga nisbatan ijobiy yo salbiy emotsional munosabatini ifodalash shaklida namoyon boʻladi.

Emotsional-ekspressiv boʻyoqning soʻzni metaforik qoʻllash natijasida ifodalanishi.

Tilda nominativ maʼnoda stilistik boʻyoqdan holi boʻlgan, koʻchma maʼnoda esa yorqin emotsional-ekspressiv boʻyoq kasb etuvchi juda koʻp soʻzlar mavjud. Metafora ana shunday boʻyoq hosil qiluvchi muhim vositalardan hisoblanadi.

Maʼlumki, maʼnoning oʻxshashlik prinsipi asosida koʻchishi metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. Biroq, predmetlar yoki hodisalar orasidagi tashqi oʻxshashlik asosida koʻchirilgan maʼnolar (*taxtaning koʻzi, derazaning koʻzi, buloqning koʻzi, stolning oyogʻi, togʻning beli, dutorning boʻyni* va h.) bilan predmet (keng maʼnoda) va uning harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiati va harakati belgilarini xarakterlashga moʻljallab ishlatilishi (*eshak, it, toʻngʻiz, qoʻchqor, qoʻzichoq, boʻtaloq, ilon, chayon, lochin, bulbul, akillamoq, vaqillamoq, sayramoq* kabi soʻzlarning metaforik qoʻllanishi) natijasida hosil boʻluvchi maʼnolar orasida katta farq bor. Birinchi holda soʻzning metaforik qoʻllanishi borliq hodisalarining maʼlum bir tashqi belgi, xususiyatlarini, obrazli anglatish taqozosi bilan sodir boʻlgan. Obrazlilik esa har qanday metaforik qoʻllashga xosdir.

Ikkinchi holda esa metaforik qo‘llangan so‘z nutq sub’ekti (so‘zlovchi)ning nutq ob’ekti (bunda: shaxs va uning harakati)ga nisbatan yorqin sub’ektiv emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalaydi.

Tilda odamning turli xil belgi, xususiyatlarini anglatuvchi qator so‘zlar amal qiladi. Xususan, uning axloqiy, intellektual ijtimoiy belgilarini, shaxsiy xususiyatlarini anglatuvchi *iflos, yaramas, dono, mard, jasur, botir, saxiy* va shu kabi so‘zlar yuqorida aytilgan mavzuviy guruhlariga birlashadigan so‘zlardir. Bu so‘zlarning leksik ma’nolarida nutq predmeti (odam)ni ijobiy yo salbiy emotsional baholash elementlari mavjud.

Biroq til arsenalidagi bu kabi so‘zlar nutq sub’ekti (so‘zlovchi) nazarida uning fikrini o‘z istagi darajasida emotsional-ekspressiv ifodalashga ojizlik qilib qoladi. Mana shu nuqsonni bartaraf etish maqsadida ongli ravishda hayvon, gazanda, qush va shu kabilarni, shuningdek, ularning xatti-harakatlarini anglatuvchi so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llashga o‘tiladi.

Bu xilda ishlatilgan so‘zlarning qay tarzda emotsional ma’no kasb etishini komponent tahlil usuliga murojaat qilinsa, aniqroq tasavvur qilish mumkin: *Ichib olgan bu eshak. Bo‘lmasa birovni urib, g‘izg‘izon bo‘p ketadimi xotintaloq.* (O‘.Hoshimov) Bu misolda *eshak* so‘zi nominativ (bosh) ma’noda *uy hayvonining bir turi, ahmoq, yaramas* semalariga ega, metaforik ma’noda esa *ahmoq, yaramas, odam* semalaridan tashkil topgan. Nominativ va metaforik ma’no strukturasi kuzatish bu ikki nominativ ma’no uchun umumiy bo‘lgan semalar *ahmoq, yaramas* semalari ekanligini ko‘rsatadi. Xuddi mana shu umumiy semalar *eshak* so‘zining metaforik ma’no hosil bo‘lishida asosiy rolni o‘ynagan, bu hodisaning lingvistik asosini tashkil etgan.

Demak, bu tipdagi ma’no ko‘chishida ham metaforaga xos o‘xshashlik belgisi muhim omillardan hisoblanadi. Biroq bu o‘xshashlik tashqi belgilar (*stolning oyog‘i, tog‘ning beli* va shu kabilardagi singari) o‘xshashligi emas, balki intellektual, xarakterlovchi belgilar o‘xshashligidir va ma’no ko‘chish ham mana shu o‘xshashlik asosida sodir bo‘lgan.

Yuqoridagi misolda soʻzlovchi *eshak* soʻzi oʻrniga *yaramas*, *ablah* soʻzlarini qoʻllash bilan ham nutq predmeti boʻlmish odamga nisbatan salbiy emotsional munosabat ifodalashi mumkin edi. Biroq, bunda *uy hayvonining bir turi* semasi bilan *odam* semasi (farqlovchi semalar) orasida paydo boʻladigan semantik kontrast hosil boʻlmas, demak, metaforik qoʻllash natijasida sodir boʻladigan stilistik-ekspressiv, emotsional effekt ham ifodalanmay qolgan boʻlardi. Semantik kontrastning metaforik maʼno strukturasi emotsional baho elementi vujudga keltirishiga sabab shuki, umumiy semalar farqlovchi semalar fonida ijtimoiy ongda turlicha qiymat bilan baholanadi. Masalan, *eshak* (uy hayvonining bir turi) va *odam* semalari (farqlovchi semalar) fonida *eshakka* xos boʻlgan befahmlik va boshqa salbiy (bu oʻrinda) belgilar odamga xos shunday belgilardan oʻta darajada ortiq, deb baholanishi metaforik maʼnoda juda yorqin, ortiq darajadagi salbiy emotsional maʼno hosil qilinishiga asos boʻladi. Koʻrinadiki, bu tipdagi maʼno koʻchishida oʻzaro bogʻliq ikki holat amal qiladi:

- 1) umumiy semalar anglatadigan belgilar oʻxshashligi;
- 2) farqlovchi semalar anglatadigan maʼnolar kontrasti.

Umumiy semalar, yuqorida aytilganidek, metaforik maʼno hosil qilishning lingvistik asosini tashkil etsa, farqlovchi semalar salbiy (yuqoridagi kabi) yo ijobiy emotsional munosabat ifodalashning asosini tashkil etadi.

Soʻzning metaforik maʼnoda qoʻllanayotganini anglab olish odatda qiyinchilik tugʻdirmaydi. Buning sababi shundaki, metaforik maʼno kasb etgan soʻz qoʻllanadigan leksik qurshov (kontrast) bu soʻzning nominativ maʼnoda qoʻllanishi mumkin boʻlgan kontekstdan farq qiladi. Xususan, *Ichib olgan bu eshak* (Oʻ.Hoshimov), *Ish boshida keksa sher* (Mirtemir), *Koʻkchatovda koʻk kamzulli bir ohu koʻrdim*, *Taajjubki, oyogʻida qizil etikcha* (A.Oripov) misollaridagi *eshak*, *sher*, *ohu* soʻzlarining nominativ maʼnoda keltirilgan kontekstlarda qoʻllanishini tasavvur qilib boʻlmaydi. Darhaqiqat, *(arq) ichib olgan* soʻzi nominativ maʼnodagi (uy hayvonining bir turi maʼnosidagi) *eshak* soʻzi bilan, *ish boshida* soʻzlari nominativ maʼnodagi (yovvoyi yirtqich hayvonning bir turi maʼnosidagi)

(*keksa*) *sher* soʻzlari bilan, nominativ maʼnodagi *ohu soʻzi koʻk kamzulli, oyogʻida qizil etikcha* soʻzlari bilan semantik aloqaga, demak, sintaktik aloqaga ham kirisha olmaydi. Aks holda, mantiqiy nomutanosiblik paydo boʻlgan boʻlar edi (aroq ichib olgan eshakni, egniga koʻk kamzul, oyogʻiga qizil etikcha kiygan ohuni, ish boshida turgan sherni tasavvur etib koʻring). Demak, koʻchma maʼnoda odamni yoki uning biror harakatini anglatuvchi soʻz semantik moslik qonuniga muvofiq maʼlum bir maʼnoli soʻzlar bilangina semantik va sintaktik aloqaga kirishadi. Bu lingvistik qonuniyat soʻzlarning metaforik maʼnoda idrok etilishiga yordam beradi.

Emotsional-ekspressiv boʻyoqning affiksasiya usuli bilan ifodalanishi.

Soʻzga *-cha, -xon, -jon, -gina, -kay, -loq, -chak, -choq, -voy (-boy), -toy, -oy, -bonu* kabi shakl yasovchi, shuningdek, soʻz oʻzgartiruvchi (egalik) affikslari qoʻshilib, ijobiy emotsional-ekspressiv maʼnolar ifodalanadi.

Emotsional-ekspressiv maʼnoning bu xilda ifodalanishi asl leksik hodisa emas, balki morfologik hodisadir. Biroq ayrim affikslarning emotsional-ekspressiv maʼnolari turli xil ottenka bilan ifodalanishida ular qoʻshilayotgan soʻzning semantik jihati hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib qoladi. Shuning uchun bu affikslar vositasida hosil qilingan emotsional-ekspressiv boʻyoqni tasvirlashda ular qoʻshilgan soʻzlarning semantik xususiyatlari eʼtiborga olinishi kerak.

-cha, -gina, -jon, -chak, -choq morfemalari erkalash, kichraytirish kabi maʼnolarni ifodalashga xizmat qilishi maʼlum. Biroq, bu affikslarning maʼno ottenkalari mavjud manbalarda koʻrsatilgan maʼnolardan ancha boy va xilma-xildir. Har bir affiks ifodalagan aniq emotsional-ekspressiv maʼno ottenkalari ular qoʻshilgan soʻzning semantik xususiyati bilan chambarchas bogʻliq holda roʻyobga chiqadi. Shunday ekan, qanday hollarda qanday emotsional-ekspressiv boʻyoq ottenkalari ifodalanishini alohida koʻrib chiqish lozim boʻladi.

-gina affiksi. Bu affiks omonimlik xususiyatiga ega, shuning uchun u qoʻshilgan har qanday soʻz emotsional-ekspressiv maʼno ifodalayvermasligi oʻz-oʻzidan ayon. Masalan, bu affiks vositasida: 1) taʼkid ifodalanadi: *Ona doimo orqasidan yurib u chala qoldirgan ishlarni bajararkan: «Ha boʻyniginang*

uzilmagur, ha, og'zingdan bol tushmagur» deb gapirib yurib ish qilardi. (Said Ahmad) Shu bittagina Tursunboy ularning quvonchi bo'lib o'sardi. (Said Ahmad);

2) *-gina* affiksi belgi anglatuvchi so'z (asosan sifat)larga qo'shib ishlatilganda, bular anglatgan belgi darajasi me'yor etmaganlik, normadan past ekanlik ma'nosi ifodalanadi: – *Yo'q, otaxon, olmayman... Mening soatga qarab qiladigan ishim yo'q... injener chol ham qaysargina ekan, otasan deb turib oldi. (Said Ahmad) Ichkarida o'qtin-o'qtin yig'i tovushi kelib turibdi. Qoragina bir kishi shoshib kelardi (Said Ahmad) Qantak o'rik tagida qirq besh yoshlardagi xushro'ygina bir juvon to'lg'anib yotardi. (Said Ahmad)*

3) ta'kid, ayirish ma'nosi ifodalanadi: *Polvon yoshli ko'zlarini unga qadadi: – Bittagina yo'l bor. Jon uka, illo-billo yo'q demaysan. (Said Ahmad) Lutfinisa tosh fonarni yoqib, ayvon dahaniga qo'ygandagina uni tanidi. (Said Ahmad)*

2. Aslan stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zga qo'shiladi. Bunda ikki holat kuzatiladi:

a) ijobiy emotsional-ekspressiv ma'no anglatuvchi so'zga qo'shilganda, bu ma'no yanada bo'rttiriladi: *jajjigina, do'ndiqqina, do'mboqqina, oppoqqina, shiringina, so'lqildoqqina* kabilar: *Sizni ham Hoji onangiz «soy bo'yi» qizlariga aylantirib qo'ymoqchi. Hushyor bo'ling, Latifaxon, oppoqqinam. Yana ixtiyor o'zingizda, – deпти. (G'.G'ulom) Men o'sha vaqtda senga o'xshagan oppoqqina, do'ndiqqina juvon edim. (M.Ismoilij)*

b) *-gina* affiksi salbiy emotsional-ekspressiv ma'noni u qadar keskin ifodalamaydigan *tentak* so'ziga qo'shib, bu ma'noni neytrallashtiradi, unga erkalash ma'no ottenkasini qo'shadi. Bunda *-gina* affiksidan so'ng odatda birinchi va ikkinchi shaxs birlikni anglatuvchi egalik affikslari qo'shiladi: *Jannat ingragandek javob qildi: – Tentakkinamga tansiqroq bir nima pishirib beray desam, o'tin qolmapti. (Said Ahmad) Rang-ro'yingga qara, senga nima bo'ldi, bolam... Nima eb yuribsan, tentakkinam. (Said Ahmad)*

Shuni ta'kidlash kerakki, salbiy emotsional-ekspressiv ma'noni juda yorqin ifodalovchi so'zlarga *-gina (-kina)* affiksi qo'shib ishlatilmaydi, chunki bu affiks

o'ta kuchli ifodalagan salbiy bo'yoqni neytrallashtirishga va unga ijobiy ma'no o'ttenkasi berishga o'zlik qiladi. Shuning uchun ham *yaramas, iflos, kallakesar, ablah, razil* kabi so'zlarga *-gina* affiksini qo'shib, ijobiy emotsional-ekspressiv ma'no anglatib bo'lmaydi.

Ijobiy emotsional-ekspressiv ma'noni kuchaytirish maqsadida ba'zan *-gina* affiksi *-jon* affiksidan so'ng qo'llanadi: *Munchalar shirinsiz, o'zimning oyijonginam, munchalar shirinsiz!* (S.Karamatov) *A'zamxon, «Volga»ng garajda. Erta mijozlarga mol tashiysan. Har ishning otasi – pul. Akramxon (suyuladi) O'zginamning dadajonginam.* (H.G'ulom)

-jon affiksi. Ijobiy emotsional munosabat, xususan, kuchli hurmat, erkalash ma'nolari *-jon* affiksi vositasida ham ifodalanadi. *Dadajon, meni kechiring. Men tinchman. Lutfi sog'-omon...* (Said Ahmad) – *Hammasi taxt, ayajon. Uy ham, ovqat ham bor.* (Said Ahmad) – *Oyijon!* – *dedi iltijoli ohangda. – Oyijon, o'zingizmisiz?* (O'.Hoshimov) – *Rahmat, ayajon, ming marta rahmat. Axir o'zingiz...* (S.Ahmad) – *Nima qilamiz, o'g'lim! Bu sharmandalikka qandoq chidayman, o'g'iljonim!* – *Oyim madori qurigandek, sandiq ustiga muk tushib qoldi.* (O'.Hoshimov)

-jon affiksi, odatda shaxs otlariga, shuningdek, ijobiy baholanuvchi hayvonlar (*kiyikjon*), qushlar (*bulbuljon, maynajon*) nomiga qo'shib, ijobiy emotsional ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Gulga kon –

Bu makon.

Bulbuljon,

Sayra, jon,

Bearmon. (Qo'shiq)

Jon so'zi nutq qaratilgan shaxs nomidan oldin qo'llanganda, odatda, so'zlovchining tinglovchidan biror harakat-holatni bajarish yoki bajarmaslikni chuqur iltijo bilan so'rash, ba'zan esa ortiq darajada erkalash, mehribonlik qilish kabi ma'nolar anglashiladi: – *Jon aka, o'sha joyini o'zingiz to'g'rilay olmaysizmi,*

a? (M.Ismoiliy) *Senga talabgor bo'lib chiqaman. Yiqilib berasan. Jon uka, agar shunday qilmasang, o'zimni o'zim chavaqlab tashlayman.* (Said Ahmad) *Jon opa, o'zingiz yoza qoling, men adashib ketaman. Jon opa.* (Said Ahmad) *Jon xotin, sharmanda qilma, oyoq yuvgan suvingga choy qaynatib bersang ham ichaman, deb iltijo qilibdi.* (G'.G'ulom) *Senga nima bo'ldi, jon qizim?* (S.Karamatov) – *Dunyo shunaqa ekan, jon bolam, – dedi o'ychan ovozda.* (O'.Hoshimov) – *Yozmang, jon ukam, yozmang, rahmingiz kelsin.* (O'.Hoshimov) – *Jon singlim, bir narsa so'rasam maylimi?* (O'.Hoshimov)

-xon affiksi quyidagicha semantik guruhlariga oid so'zlarga qo'shib ishlatiladi:

1) ayollarga murojaat qilish shakllari bo'lmish *oyimcha, go'zal, suluv* so'zlariga qo'shib ishlatiladi: *Voy quloqlaringning qimirlashiga o'zginam girgitton bo'lay. Uni qarang, oyimchaxon, quloqlari biram chiroyli qimirlaydiki...* (G'.G'ulom);

2) erkaklar ismiga qo'shiladi: *Salimxon, Sattorxon, Turdixon, Ahmadxon, Azizxon* va b.: *G'.G'ulom yozibdi. Butun O'zbekistonga doston qilibdi. Menimcha, endi Azizxonga birov churq etmaydi.* (Said Ahmad);

3) *ota, ona, bola* so'zlariga qo'shib o'ta hurmat, e'zozlash, erkalash kabi ma'nolarni anglatadi: *Otaxon, siz Aziz polvonning dadasimisiz?* (Said Ahmad) *Ko'tarishga urinib bir kuchanib ko'rdi. Mashina yarim qarichcha o'rnidan ko'tarildi. – Bo'ladi. Beshovlon bemalol burvoramiz. Kelinglar, akaxonlar!* (Said Ahmad);

4) ovqat, ichimlik nomlari (*konyak, palov* kabilar)ga qo'shib, ularga nisbatan yorqin ijobiy emotsional munosabat ifodalashga xizmat qiladi: *Juda jala quyib ketdi. Havo aynidi. Shunday choqda issiq uy-u, palovxon bo'lsa* (Shukrullo). *Ta'bing bir oz ochildimi, konyakxondan ur.* (Shukrullo)

Emotsional bo'yoqni quyushtirish maqsadida ba'zan *palovxon* so'zidan so'ng *to'ra* so'zi keltiriladi: *Topib olganingiz choyxona, o'y-fikringiz ichkiligu*

palovxon to'ra. (M.Abdukarimov) ... *sen, darov savzi arch. Men bir palovxon to'ra yasay, bolalar ham hali zamon ishdan kelishadi.* (G'.G'ulom)

-*cha* affiksi emotsional-ekspressiv ma'no ifodalashga xizmat qilganida bu ma'no mazkur affiksning kichraytirish funksiyasi bilan bog'liq holda, shu orqali ro'yobga chiqadi: *qizcha, o'g'ilcha, qushcha* kabilar.

Bu affiks kinoya, kesatiq ma'nolarini ifodalashga ham xizmat qiladi: *oyimcha, jononcha, xonimcha, akacha, tog'acha* kabi: *Xo'sh, oyimcha, muhabbat – hayot ziynati, dil xazinasi. Sevgi yo'lida shirin jon berish... yo'qol, makkor!* (H.G'ulom) *Ha, xonimcha, siz ham xo'jayiningizning yonini olasiz-da-a?* (H.G'ulom) *Rashkingiz zo'r ekan-a! Qo'rqmang, xonimcha, Salimjonni eb qo'ymayman.* (G'.G'ulom) Kinoya ma'nosi II shaxs shaklidagi egalik affikslarining qo'shilishi bilan kuchayadi: *akachang, tog'achang* kabi.

Bu affiks aslan ijobiy emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zga qo'shilganda, bu bo'yoqni yanada kuchaytiradi:

Do'ndiqchayu mo'ndiqcha

Xizmat qilay o'lguncha. (H.H.Niyoziy)

Sayil-da! Qiz ko'p! Ana

G'oz kelar bir do'ndiqcha. (O.Matjon)

Ana ko'rmaysanmi, bu qanday oppoq do'ndiqcha! Mana bu mening birdan-bir arzandam, kelajakda sening xotining bo'ladi. (S.Ayniy) *Ha, buni yaxshi qilgansiz, aylanay sizdan, do'ndiqcham.* (Oybek)

-*loq* affiksi erkalash ma'nosini anglatadi: *bo'taloq, toyloq, qizaloq* kabi: *Ha, etim toylog'im, qaysi go'rlarda besaru samon yo'qolib ketding.* (G'.G'ulom) *Hadicha. Bolam bechora dars tayyorlayverib cho'p ustixon bo'lib ketdi. O'lsin ilm shunaqa qiyin bo'lmay. Tura qol, bo'taloq.* (H.G'ulom) – *Feruza sog'mi? Kuta-kuta toqatim toq bo'ldi... toylog'imni qachon olib kelasiz? – Toylog'ingiz chopqillab yuribdimi? – dedi nihoyat Aziz.* (H.G'ulom)

-*choq, -chak* affikslari ham ijobiy emotsional (kichraytirish-erkalash, ardoqlash kabi) ma'nolarini anglatadi: *toychoq, qo'zichoq, kelinchak* kabi.

Toychoq, qo‘zichoq so‘zlari metaforik ma’noda qo‘llanganda ekspressivlik kuchayadi. Masalan, – *Nozik ham birga boradimi? – Boradi, boradi. Tura qol, qo‘zichog‘im.* (H.G‘ulom)

Sen ketding

Dillarni o‘rtab, yondirib.

Yuraklarda qoldi alam – tugunchak.

Hayotni sevarding,

Qandoq sevarding

Ko‘chamizning ko‘rki eding,

Kelinchak. (E.Vohidov)

-*voy (-boy)* affiksi. Bu affiks *jinni, tentak* kabi salbiy emotsional ma’noli so‘zlarga qo‘shilib, salbiy ma’noni susaytirishga, neytrallashtirishga xizmat qiladi va shu asosda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan yaqin, samimiy va oddiy munosabatini bildiradi: *To‘lan, jinnivoy, Zirillamaga borganda ham po‘killayverma. Xotining erim mushuk bo‘lib qolibdi deb tayoq bilan urib yurmasin.* (Said Ahmad) *Tur deyapman, tentakvoy, adang ham “darrov tursin” dedilar.* (H.G‘ulom)

-*voy* affiksi bolalar nutqida *ada, opa* kabi so‘zlarga ham qo‘shilib ishlatiladi. Bu holda erkalanish emosiyasi ifodalanadi: *Opavoy, bizlar bog‘chada qo‘g‘irchoq yasadik, hi...* (Bolalar nutqidan)

-*toy* affiksi erkalash munosabatini anglatadi: *Tura qol, erkatoyim! Xo‘jatoy, tur, soat o‘n bo‘libdi. Darrov choyingni ichib imtihoningni topshirib kelaqol. Nima deyapti bu o‘zidan-o‘zi. Shirintoy, turaqol endi.* (H.G‘ulom) – *Sovuq qotib ketibsanku, shakartoyim!* (O‘.Hoshimov)

-*lar* affiksi ham stilistik bo‘yoq ifodalovchi vosita sifatida amal qiladi: a) salbiy emosiya anglatuvchi ibora tarkibida bu ma’noni kuchaytiradi. *Nazirbibi. Agar orzu-havas shunaqa bo‘lsa, quriblar ketsin-e!* (Shukrullo) b) bu affiks shaxs otiga qo‘shilganda odatda asl hurmatini (bunda kontekst ham katta ahamiyat kasb etadi), hurmat qilinayotgan shaxsga tegishli narsa-predmetini (keng ma’noda)

anglatuvchi soʻzlarga, shuningdek, predmet harakatini koʻrsatuvchi feʼllarga qoʻshilganda, oʻsha shaxsga boʻlgan hurmatini xushomadgoʻylik ottenkasi bilan ifodalashga xizmat qiladi: ... *Toʻraxon aka!.. mosh mushuklaringiz bor-ku, oʻsha jonivorgina tugʻib yotibdilar...* – *Bor, Toʻraxon akamning mushuklari engil boʻlganlar, atala pishirib ber dedim.* (N.Aminov)

-oy, -bonu kabi asl leksik maʼnosidan chetlashgan elementlar ayollar ismiga qoʻshib ishlatiladi va erkalash, eʼzozlash kabi ijobiy munosabatni anglatadi: *Trubkadagi shovqin yoʻqolib, nafasingning tiniq tovushi yangradi...* – *Nafisa oy!..* – *dedi Aziz oʻpkasi yumshab, koʻzlariga qaynoq yosh qalqib ketdi.* (H.Gʻulom) *Bularning janjali yaqin orada hech ado boʻlmaydi, Chamanda bonu.* (H.Gʻulom)

Egalik affikslari ham ijobiy yo salbiy emotsional-ekspressiv munosabat ifodalashda ishtirok etadi. Bunda ikki holat kuzatiladi:

I shaxs birlik va koʻplikni koʻrsatuvchi egalik affiksi undalma vazifasida qoʻllanuvchi soʻzga qoʻshiladi va ijobiy emotsional munosabat anglatadi. Buning sababi shundaki, egalik affiksi shaklidagi soʻz anglatgan predmet (keng maʼnoda: u shaxs, jonsiz predmet va h. boʻlishi mumkin) soʻzlovchiga qarashli boʻladi. Mana shu qarashlilik asosida esa ijobiy (erkalash, oʻziga yaqin olish kabi) munosabat ifodalash imkoni tugʻiladi. *Arslonim, naʼra solib bos yovni.* (Folklor) *Alla aytay mehr bilan uxlab qol, qoʻzichogʻim.* (Folklor) - *Odamlarni qaratma, yur, qoʻzim.* (S.Zunnunova)

Baʼzi manbalarda erkalatish maʼnosi *arslon, yoʻlbars, sher* kabi yovvoyi hayvonlar; *toyloq, toychoq, boʻtaloq, qoʻzichoq* kabi uy hayvonlari nomlariga egalik affiksi (-m, -im) qoʻshish bilan ham anglatilishi aytiladi. Bu fikrga aniqlik kiritish lozim. Bunda erkalatish maʼnosining yovvoyi hayvonlar yoki uy hayvonlarining nomlariga egalik affiksi qoʻshib ifodalanishi haqida emas, balki nima uchun bu (ijobiy emotsional-ekspressiv munosabatni bildiruvchi) maʼno yuqorida koʻrsatilgan hayvonlar nomiga qoʻshilganda ifodalanishi mumkinligi haqida fikr yuritilishi lozim edi.

Gap shundaki, I shaxs egalik affiksi har qanday yovvoyi yo uy hayvonlari nomiga qo'shilib, ijobiy munosabat ifodalashga xizmat qilavermaydi (*to'ng'izim, bo'rim, shoqolim, echkim, xo'kizim* kabi qo'llashlar yo'qligi bejiz emas). I shaxs egalik affiksi metaforik qo'llanganda ijobiy baholanuvchi tushuncha anglatuvchi yovvoyi va uy hayvonlari nomlarigagina qo'shilib, ijobiy emotsional munosabat ifodalashga xizmat qiladi. Buning sababi esa yuqorida aytilganidek, so'zlovchi faqat ijobiy baholanuvchi predmetlarnigina (keng ma'noda) o'ziga qarashli qilib gapiradi. Demak, bunda psixologik omil ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlovchining nutqda salbiy baholanuvchi narsa-hodisalarni tinglovchiga qarashli ma'nosida (II shaxs egalik shaklida) qo'llashi ham mana shu psixologik omil bilan izohlanadi (*itvachchang, xo'kizing, iloning* kabi qo'llashlar salbiy emotsional munosabat ifodalashga xizmat qiladi).

Egalik affiksining emotsional-ekspressiv ma'no anglatish uchun qo'llanishi quyidagicha:

1. Stilistik jihatdan neytral bo'yoqli bo'lgan so'zga qo'shiladi va erkalash ma'nosi ifodalanadi: *O'g'lining achchiqlanayotganini ko'rib, ona sergaklandi: Xo'p, xo'p, bolam. Endi gapirmayman.* (Said Ahmad)

Aka so'ziga qo'shilgan bu affiks tengdoshlar yoki yosh jihatidan bir-biridan keskin farq qilmaydigan kishilar orasidagi oddiy muomalada kinoya, hazil ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanadi. *Ha, akam, ko'rinmay ketdingiz? Obbo, akam-ey, dunyoning bir chetini gullatib yuribman deng?* (Oddiy so'zlashuvdan)

2. Aslan stilistik bo'yoqdor bo'lgan yoki *-jon, -gina, -cha* va shu kabi affikslardan birortasi qo'shilishi natijasida bo'yoqdorlik kasb etgan so'zga qo'shib ishlatiladi. Bunda o'sha so'zlarga xos ijobiy stilistik bo'yoq kuchaytiriladi (*do'mbog'im, oppog'im, ukaginam, qizginam, do'ndiqqinam, ukajonim* kabi): *Bolaginam qaerlarda yurganikin?* (Said Ahmad)

II shaxs egalik affiksi ham ijobiy emosiya anglatishga xizmat qiladi. Bu holda, 1) sevish, erkalash emosiyasi tinglovchiga qarashli bo'lgan predmetni (keng ma'noda) anglatuvchi so'zlarga avval erkalash shakli affikslari (*-gina, -jon, -cha*

kabilar), soʻng egalik affiksi qoʻshish orqali ifodalanadi: – *Ha, bolaging koʻpaygur-a, bu nima qiliq, hali ham yotibsanmi?* (Said Ahmad) – *Choy ichmading-ku, choygingni ichmading-ku, tentagim.* (Said Ahmad) *Ikrommisan? Tinchmisan, bolam? Arzandaging oʻynab-kulib yuribdimi?* (Said Ahmad); 2) egalik affiksi bilan qoʻllanuvchi soʻz anglatgan shaxs soʻzlovchi va tinglovchi uchun bir xilda yaqin boʻlsa, erkalash, hurmat emosiyasi faqat tinglovchiga emas, soʻzlovchiga ham birdek tegishli ekanligi maʼnosi anglashiladi: *Mana, bormaganingdan dadaging nonushtani kutib-kutib, och-nahor qishloqqa tushib ketibdi.* (Said Ahmad)

Onaning bolaga murojaatini tasvirlovchi bu gapda *dada* soʻzi anglatgan shaxs soʻzlovchi uchun ham (uning yostiqdoshi), tinglovchi uchun ham (uning otasi) birdek yaqin. Yana bir misol: *U xotinini koʻrib achchiqlandi. – Oʻzing kelyapsanmi?.. oʻgʻlingga aytsang boʻlmasmidi? Necha marta aytaman, yuk koʻtarma deb, – Jannat hechqisi yoʻq degandek iljaydi. – Tursunboyging uxlayapti... Uygʻotgim kelmadi.* (Said Ahmad) (Bunda Tursunboy soʻzlovchi va tinglovchi shaxslarning farzandi)

Undalma funksiyasida qoʻllanuvchi *dadasi, onasi, oyisi* kabi soʻzlar tarkibida qoʻllangan III shaxs shaklidagi egalik affiksi hurmat maʼnosi ifodalashga xizmat qiladi: – *Ha, keling, dadasi. Oʻgʻlingizni nima qildingiz? – Koʻchirib keldim, oyisi...* (A.Muqimov) (Bunday qoʻllanishlar evfemistik xarakterda boʻlib, «bolalarimning dadasi, onasi» iborasi bilan bogʻliq boʻlgan deb taxmin qilish mumkin. Buni oddiy soʻzlashuvda qoʻllanuvchi “*Ha, akasining ukasi, sogʻ-omon yuribsizmi?*” kabi iboralar ham tasdiqlaydi).

Opasi, shu xolangizga joy bering. Akasi, shu koʻchatlarni uyingga olib ket kabi gaplarda qoʻllangan *opasi, akasi* soʻzlari tarkibidagi egalik affikslari oʻz asl funksiyalarida idrok etilmaydi. *Opasi (akasi) aylansin* tipidagi birikmalarning komponentlari ellipsisga uchrashi natijasida paydo boʻlgan bu murojaat shakli yosh jihatdan katta boʻlgan soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan erkalash yoki

yumshoq shaklda iltimos qilish ma'nolarini anglatadi (tengdoshlar orasidagi muomalada bu so'zlar hazil, kinoya ma'nolarini ifodalaydi).

Emotsional-ekspressiv bo'yoqning kontekstual ifodalanishi.

Kontekst vositasida:

1. Stilistik bo'yog'i neytral bo'lgan so'z stilistik bo'yoq kasb etadi.

2. Aslan stilistik (emotsional-ekspressiv) bo'yoqdor bo'lgan so'z o'z stilistik bo'yog'iga zid stilistik bo'yoq kasb etadi.

I.Neytral so'zning stilistik bo'yoqdor bo'lib qolishi ma'no ko'chishi asosida sodir bo'ladi. Masalan, *Shu ham uy bo'ldimi, katalak-ku* ("Mushtum") misolidagi stilistik jihatdan aslan neytral bo'lgan *katalak* so'zi shu kontekstda ko'chma ma'noda – *juda tor* degan ma'noda qo'llangan va ayni paytda so'zlovchining nutq predmetiga nisbatan keskin salbiy emotsional-ekspressiv munosabatini bildirgan. Bunda *katalak* so'zi o'rnida *juda tor* birikmasini ishlatish mumkin. Biroq, bu holda nutq predmetiga nisbatan so'zlovchining salbiy emotsional-ekspressiv munosabati ifodalanmay qolgan bo'lar edi. Yana qiyoslang: *Yagona gul, durdona, hey, Anori dona-dona*. (Qo'shiq) Bu kontekstda *gul* so'zi *qiz* so'zi ma'nosida qo'llanib, yorqin ijobiy emotsional-ekspressiv munosabat ifodalashga xizmat qilmoqda. *Anor* so'zi ham ko'chma ma'no kasb etib, kuchli ifoda vositasi sifatida amal qilmoqda.

Ayni bir so'z turli kontekstda turli ma'no va stilistik bo'yoq kasb etadi. Masalan, *kalla* so'zi shunday xususiyatga ega: *Obbo, kalla-ey, shu masalani ham echolmadingmi?* (so'zlashuvdan) gapida *kalla* so'zi beaql ma'nosida qo'llanib, salbiy emotsional-ekspressiv munosabat ifodalashga xizmat qilayapti.

Zap kallasi bor-da, kallasi zo'r ishlaydi kabi qo'llashlarda bu so'z *aql* ma'nosini anglatadi va ijobiy stilistik bo'yoq kasb etadi. Quyidagi kontekstda ham *kalla* so'zi *aql* ma'nosini anglatadi. "*Qo'rqmang, – dedi o'shanda professor SHerzodni yupatib: Bu miya charchashidan bo'ladi... O'ylamang*". "*Odam o'ylamasa, kalla nimaga berilgan, – Sherzod karavotni g'irchillatib chalqancha yotib oldi. – Biron daqiqa o'ylamay turish mumkinmi?*" (O'.Hoshimov)

Biroq bunda, yuqorida keltirilgan kontekstlardagidan farqli ravishda, *kalla* soʻzi stilistik jihatdan neytraldir. Bu hodisa konteks xarakteri bilan bogʻliqdir: birinchi holda belgi anglatuvchi *zap*, *zoʻr* soʻzlari *kalla* soʻzining ijobiy emotsional-ekspressiv boʻyoq kasb etishiga asos boʻlgan. Soʻnggi kontekstda bunday asos yoʻqligi soʻzni stilistik boʻyoqdan mahrum qilgan.

II. Aslan stilistik boʻyoqdor soʻzning teskari stilistik boʻyoq kasb etishi ikki turli kontekstda: 1) makrokontekst (keng kontekst)da va 2) mikrokontekst (tor kontekst)da sodir boʻladi.

Makrokontekst biror voqea-hodisa haqida keng, atroflicha informasiya beruvchi keng nutqiy parchadir. U ikki va undan ortiq gaplardan tashkil topadi va biror soʻzning stilistik boʻyoq kasb etganligi shu konteks mazmuni fonida ayon boʻladi.

Soʻzlarning teskari stilistik boʻyoq kasb etishi shu kontekst mazmuniga zid qoʻyilishi asosida sodir boʻladi: salbiy baholanuvchi voqea-hodisa tasviri berilgan kontekstda qoʻllangan ijobiy emotsional-ekspressiv boʻyoqli soʻz salbiy boʻyoq kasb etadi va aksincha, ijobiy mazmunga ega boʻlgan kontekst fonida salbiy boʻyoqli soʻz ijobiy emotsional-ekspressiv boʻyoq kasb etadi. Masalan, gazetalardan birida berilgan bir lavhada chayqovchilik bilan shugʻullangan oltiariqlik baʼzi shaxslarning kirdikorlari fosh etilgan matn (bu matn bir qancha gaplardan tarkib topgan) makrokontekst boʻlib, uning oxirida «*Balli, oltiariqlik azamatlar!*» degan gap berilgan. Bu gapda qoʻllangan *balli*, *azamat* soʻzlari aslida ijobiy emotsional-ekspressiv boʻyoqli soʻzlardir, lekin yuqoridagi holatda – salbiy mazmunli makrokontekst fonida bu soʻzlar teskari stilistik boʻyoq kasb etib, achchiq kesatiq, kinoya kabi maʼnolarni anglatishga xizmat qilgan.

Shu lavhadan yana bir misol keltiramiz. Bunda ham salbiy mazmun ifodalagan makrokontekst ijobiy stilistik boʻyoqli *shovvoz* soʻzining teskari stilistik boʻyoq kasb etishiga asos boʻlgan (bunday soʻzlar odatda, qoʻshtirnoqda beriladi): *Fargʻona vodiysidan Moskva shahriga yuk olib boruvchi «shovvoz»larning asosiy xizmatchilari, beminnat dastyori 33- poezd ekan.*

Bunday qo‘llanishlarda ba‘zan so‘zning salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i ijobiy ottenka kasb etganini bu xildagi so‘z bilan ijobiy emotsional-ekspressiv munosabat anglatuvchi so‘zning sintaktik konstruksiya tarkibida yonma-yon qo‘llanishi ham ko‘rsatib turadi: *Tuproq qazib, do‘ngga tashidim. Yigirma to‘rt kubometr tuproq o‘pirdim. O‘pirganimni yuqoriga o‘zim tashidim... Ikromjon o‘rnidan turib (Azizxonning) elkasidan quchdi, - Obbo azamat-e, obbo esi yo‘q-e!* (Said Ahmad)

Aslida *esi yo‘q* leksikalizasiyalashgan birikmasi salbiy emotsional munosabat ifodalaydi. Biroq, keltirilgan gapda u ijobiy munosabat (erkalash munosabati) ifodalashga xizmat qilmoqda. Aks holda, *esi yo‘q* leksik birligi nominativ ma‘nosida ijobiy emotsional munosabat ifodalovchi *azamat* so‘zi bilan bir kontekst doirasida, bir funksiyada qo‘llana olmagan, u bilan semantik oppozisiya hosil qilgan bo‘lar edi. Demak, zid stilistik bo‘yoqli so‘zlarning bir gap doirasida qo‘llana olishi ulardan birining o‘z stilistik bo‘yog‘ini yo‘qotib, boshqasi bilan bir xil stilistik bo‘yoqli bo‘lib qolganligini ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biridir.

Mikrokontekst so‘z qo‘llanayotgan kichik bir nutqiy parcha, ya‘ni gapdir. So‘zning teskari stilistik bo‘yoq kasb etishi shu gap doirasida sodir bo‘ladi. *Balli* so‘zining mikrokontekstda teskari stilistik bo‘yoq kasb etishini kuzataylik. Bu so‘z aslida ijobiy emotsional-ekspressiv so‘zdir: *Ammo, lekin yuzingizni erga qaratmayman: qanaqa ish bo‘lsa yarayman. Tog‘ qo‘por desangiz, qo‘poraman. – Ha, balli, – dedi chol.* (Said Ahmad) *Oxunboboev mamnun iljaydi-da, choy ichib o‘tirgan Esh polvon oldiga kelib, elkasiga qoqdi: “Oriyatingga balli, Eshmuhammad, sendan juda xursandmiz.”* (Said Ahmad)

Bunda *balli* so‘zining ijobiy emotsional bo‘yog‘i bilinib turadi, chunki bu kontekst mazmunidan tasvirlanayotgan voqealar ijobiy baholanishga loyiq ekanligi aniq ko‘rinib turadi. Xuddi shuning uchun bu so‘z asl emotsional-ekspressiv ma‘nosida idrok etiladi. Quyida esa u salbiy bo‘yoq kasb etgan: *Balli-ey, oltiariqliklar sha‘niga dog‘ tushirgan ucharlar.*

Bunda *balli* soʻzining teskari stilistik boʻyoq kasb etishida shu soʻz bilan mazmun aloqasiga kirishgan *dogʻ tushirmoq, uchar* soʻzlari anglatgan tushunchalarning mantiqan tahsinga sazovor boʻla olmasligi, yaʼni *balli* soʻzi anglatuvchi ijobiy bahoga zid kelib qolishi asos boʻlgan. Bunday holni *Qoyil, yolgʻonni ham doʻndirding. Ha, sher, vaʼdaga vafo qilmadilar-ku*, gaplaridagi *qoyil*, metaforik qoʻllangan *sher* soʻzlarining teskari stilistik boʻyoq kasb etishida ham koʻrish mumkin.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, makrokontekstda ham, mikrokontekstda ham soʻzning teskari stilistik boʻyoq kasb etishi zidlanish asosida amalga oshadi. Birinchi holda soʻzning teskari stilistik boʻyoq kasb etishi uning keng kontekst mazmuniga zid qoʻyilish asosida, ikkinchi holda esa gap tarkibidagi biror soʻz anglatgan tushunchaga zid qoʻyilishi asosida sodir boʻladi.

Kontekstda stilistik boʻyoq kasb etgan soʻz odatda juda kuchli badiiy tasvir vositasi sifatida xizmat qiladi¹⁵.

4-§. BELGINI KUCHAYTIRISH SEMASINING QOʻSHILISHI

Emotsional birliklarga turli vositalar yordamida kuchaytirish maʼnolari qoʻshiladi. Ular salbiy va ijobiy emotsional birliklarni hosil qiladi. Belgini kuchaytirish semasi ham turli xil holatlarda namoyon boʻladi.

Belgini kuchaytirish, unga emotsional boʻyoqdor sema qoʻshish uchun bir qancha vositalardan foydalaniladi: *-gina (-kina, -qina)* affiksi, belgining kuchliligini ifoda etuvchi *eng, juda, buncha, biram, rosa* soʻzlarini belgi bildiruvchi soʻz oldidan keltirish orqali, *p, m* tovushlari bilan sifatlarni takrorlash orqali, ijobiy yoki salbiy maʼnoli belgi bildiruvchi sifat soʻzlar orqali.

-gina (-kina, -qina) affiksi yordamida ijobiy maʼno ifodalanishi: *Oppoq roʻmol oʻragan, keng engli koʻylak kiygan yumshoqqina kampir kulimsirab qarshi oldi.* (Oʻ.Hoshimov) *Tepasida mushtdekkina boʻlib xotini oʻtiribdi, qovoqlari qip-qizil.* (E.Aʼzamov) ... *kichkina mitti koʻzchalari bilan uning yuragida ham shodlik,*

¹⁵ Oʻzbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. – B.178.

ham umid olovini yoqardilar. (S.Zunnunova) *Kunlardan birida oppoqqina, do'mboqqina notanish xotin bir narsadan qo'rqqandek hurkib darvozadan kirib keldi. (O'.Hoshimov) O'sha tor ko'chadan o'tib, kaftdekkina hovliga kirib qoldik. (O'.Hoshimov) O'zi xushro'ygina edi-yu, gapini eshitgan odam hayron qolardi: go'yo bu so'zlarni u emas, orqasiga yashirinib olgan badfe'l, badbashara bir kimsa aytyapti, bu esa uning og'zidan chiqqanini yakkash takrorlayapti, xolos. (E.A'zamov)*

Salbiy ma'no ifodalab kelishi: *Soch qo'ygan, saksovuldek oriq shofyorning yonida o'tirgan, lablarini yangi kalishning ichidek qip-qizil qilib bo'yab olgan sovuqqina bir juvon qora ko'zoynak ustidan bizga sigirqarash qildi. (S.Ahmad) Xotini o'zining teskarisi: bo'shshangina juvon. (O'.Hoshimov) - Ko'rib turibman! – Telpakli kishi qo'l siltadi. – Mushukdekkina echki ekan. (O'.Hoshimov)*

Eng, juda, buncha, biram, rosa, picha so'zlari orqali: - Vuy, muncha chiroyli! – dedi qattiq shivirlab. – Bir qoshiq suv bilan yutgudek-a! (O'.H.) Kuyovimni aytmay sizmi... biram odobli, biram aqlli... (O'.H.) Redaksiya axir, bu eng muqaddas joy-ku! (S.Zunnunova) O'rtog'i picha mahmadona, tullakroq ko'rinadi. (E.A'zamov)

-dan chiqish kelishigi qo'shimchasi vositasida: *Jondan aziz, shakardan shirin qizim Ra'noxonga. (S.Zunnunova)*

p, m tovushlari bilan sifatlarni takrorlash orqali: – *Bormisan, oppoq qizim? Farhod chaqaloqligida oppoq, semiz, ko'zlari katta-katta, juda chiroyli edi. (S.Zunnunova) Bu to'kinlik, bu ne'matlardan og'zi ochilgan mehmonlar havas bilan eb-ichishadi, yayrashadi-yu, uying ahvoliga qarab taajjublelanishadi: qup-quruq, talabaning hujrasidek g'arib. (E.A'zamov)*

Ijobiy ma'noli belgi bildiruvchi sifat so'zlar ham belgi semasini kuchaytirish uchun xizmat qiladi: – *Sen ham yur, shirin bola. U Egamovga qaramadi ham, engil, chaqqon qadamlar bilan bir zumda bufetga kirib ketdi. (S.Zunnunova)*

Salbiy ma'noli belgi bildiruvchi sifat so'zlar orqali: *Osmonda xoin oy kezar, behayo iljaygancha harom nurini sochar, xiyonatkor yulduzlar xoinlarcha ko'z qisishar, xiyonatkor shamol xoinona qiqir-qiqir kular edi.* (O'.Hoshimov) *Jinimdan yomon ko'raman, shunaqa lattachaynar yigitlarni!* (O'.Hoshimov) – *Voy imonsizlar! Ikkalasi bitta odam ekan-ku!* (O'.Hoshimov) – *Birovning moliga tish qo'ydiradigan haromxo'r bilan ko'rishmayman!* (O'.Hoshimov) ... *redaksiya nomini sotib ba'zi bir anqov kolxoz raislaridan narsa undirib yurganligi yozilgan edi.* (S.Zunnunova) *Tili chayonning tilidan zaharli, bu qurib ketkurning!* (S.Zunnunova) – *Ajinaga balo bormi? Bitta-yarimta xudobexabar qo'rqitgandir-da.* (O'.Hoshimov) – *Bola emas, balo bo'ldi bu!* (O'.Hoshimov) *Kim o'zi u! Bitta haromxo'r chayqovchi-da.* (O'.Hoshimov)

Salbiy ma'noli so'zning ijobiy ma'noda kelishi: – *Voy o'zimning qochqoq qizimdan aylanay!* (O'.Hoshimov) *Lo'ppi yuzi yanayam shishib, barkashdek bo'lib ketgan.* (O'.Hoshimov) – *Qani qoravoylar! Qani popuklar, – deydi qandaydir tantanavor ohangda.* (O'.Hoshimov)

Uning yonida haligi o'rta bo'y, qorachadan kelgan yigit paydo bo'ldi. (S.Zunnunova) Ushbu misolda belgi ifodalovchi *o'rta bo'y, qorachadan kelgan* birikmalari gapga ijobiylik qo'shgan, ya'ni bu so'zlar o'rnida *pakana, qop-qora* so'zlari qo'llanganda gap salbiy ekspressiv ma'noli bo'lib qolgan bo'lardi. Gapda foydalanilgan birikmalar esa gap ma'nosida ijobiy ekspressivlik paydo qilgan.

Demak, bulardan ko'rinadiki, yuqoridagi kabi holatlarda belgi o'zi ifodalagan salbiy yoki ijobiy ma'nosiga qo'shimcha kuchaytirish semalarini qo'shadi va bir qadar ularning ma'nolari kuchayadi. So'zlovchi yoki yozuvchining shu belgi yoki xususiyatga munosabati bir muncha kuchliroq bo'yoq yordamida ifodalab beriladi.

5-§. NEYTRAL VA EMOTSIONAL LEKSIK BIRLIKLAR PARADIGMASI

So'zlar kontekstda kelganda ularning yanada ko'p funktsiya bajarishini sezish qiyin emas. Ayrim o'rinlarda neytral bo'lgan so'zlar ham nutqda ekspressiv

bo‘yoqqa ega bo‘lib qolib, salbiy yoki ijobiy ma’nomlarni bildiradi va ular emotsional so‘z bo‘lib qolishi mumkin. Misol tariqasida *tulki* so‘zini olsak. Ushbu so‘z yovvoyi hayvon nomi bo‘lib, bu hayvonning yashash tarzi biologiya fanida o‘rganiladi.

Ayrim o‘rinlarda kontekst ichida bu hayvonga berilgan sifat bu nomning insonga nisbatan qo‘llanilishiga olib keladi va *ayyor odam* birikmasi o‘rnida salbiy bo‘yoqni kuchaytirish uchun *tulki odam* birikmasi ishlatiladi. Bunday birikmaga aylantirilganda tulkidagi barcha salbiy sifatlar insonga o‘tadi va o‘sha ta’riflanayotgan insonga nisbatan tinglovchi ongida salbiy tasavvurlar paydo bo‘lishini bilib olishimiz mumkin. Bunda ot turkumidagi so‘z sifat turkumiga ko‘chib, salbiy bo‘yoqli emotsional so‘zni ifoda etadi.

Shu o‘rinda «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»¹⁶ ga nazar tashlar ekanmiz, *ayyor* sinonimik qatorida *tulki* so‘zi bilan birga *shayton* so‘zi ham kelganini ko‘rishimiz mumkin. Bu ikki so‘z alohida olinganda (kontekstdan tashqarida), bir-biriga aloqasi bo‘lmagan ikki so‘z hisoblanadi. Lekin ularni kontekstga olib kirganimizda *ayyor* so‘zi orqali bir-biriga bog‘lanadi va aldab, chalg‘itib, har qanday ishni o‘z foydasiga hal qiladigan, makr-hiylaga usta¹⁷ degan lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib qoladi. *Mug‘ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog‘uli* va shu kabi bir qancha so‘zlar bilan sinonimik qatorni tashkil qiladi. Ushbu qatorga mansub so‘zlardan *shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa* so‘zlari «ish ko‘rgan ayyor» ma’nosida qo‘llanadi. Bu so‘zlar ma’nosi doirasiga quyidagi misollar bilan yanada oydinlashtirilgan: *Yana u Mirzakarimboy xonadoniga boshliq bo‘lib kekkaysin, ... boylkning nishabini o‘z tomoniga to‘g‘rilasin!... U juda shayton xotin* (Oybek). *Chol soqolini timiskilab: «Ehtiyot bo‘ling u (Qo‘qonboy) juda tulki odam, kattaroq shikast etkazmasin», - dedi* (Mirmuhsin)¹⁸. Keltirilgan gaplardan ko‘rinib turibdiki, so‘zlar bir so‘z doirasida bog‘lanib, o‘z lug‘aviy ma’nosidan butkul boshqa ma’noga o‘tib sinonimik uya hosil qilmoqda.

¹⁶ Hojiev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 308 b.

¹⁷ O‘sha kitob. B.18.

¹⁸ O‘sha kitob. B.19.

Quyidagi misolga e'tibor qaratganimizda esa yuqoridagi holatdan o'zga ma'noga duch kelamiz, ya'ni bu misolda keltirilgan *shayton* so'zi *ayyor*, *tulki* va boshqa shu qatordagi sinonim so'zlar anglatgan ma'noni bildirmagan. – *Bir-biringni tilingni bilasan-a, shaytonlar! – deya suyib po'pisa qiladi onam* (E.A'zamov). Yuqoridagi misollarda so'zlar faqat salbiy ma'no ifodalab kelgandi. Lekin bu misolda unga zid hodisaga duch kelmoqdamiz, ya'ni *shayton* so'zi ijobiy ma'noga ko'chib, erkalash semasiga ega bo'lib qolgan. Ona bolalarning faqat sho'xliklari sabab shu so'z bilan erkalagan. Bunda hech qanday salbiylik ham, yuqoridagi kabi ta'rifga tushadigan sifat ham yo'q. Demak, ko'rinadiki, bir so'zning o'zi bir o'rinda ijobiy, bir o'rinda salbiy ma'no anglatib kelishi ham mumkin. Bunda hech qanday vosita bu so'zning zid ma'noga o'tishiga sabab bo'lmagan.

O'zbek tili sinonimlarining qo'llanilishi doirasida ham emotsional so'zlardan turlicha foydalaniladi. Lug'atga nazar tashlaganimizda sinonimik qatorlarda ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan ijobiy va salbiy birliklar tartib bo'yicha keltiriladi. Lug'atda berilgan so'zlarning ifodasini ham biz o'z ishimizda aks ettirishni maqsad qildik.

Lug'atda *aralashmoq*, *qo'shilmoq*, *qotishmoq*, *suqilmoq* sinonimik qatori keltirilgan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosiga quyidagicha ta'rif berilgan: ish-harakat, gap-so'z va shu kabilarga bosh qo'shmoq. *Aralashmoq*, *qo'shilmoq* so'zlari keng tushunchaga ega, ular turli tipdagi ish-harakatga bosh qo'shish ma'nosida qo'llana oladi. *Qotishmoq* gap-so'z, kulgu kabilarga qo'shilish ma'nosida qo'llana oladi. Lekin shu ma'noda *aralashmoq*, *qo'shilmoq* so'zlariga nisbatan kam ishlatiladi. *Suqilmoq* salbiy bo'yoqqa ega so'z.

Nachora, hatto rozi bo'lishga ham tayyor turganda kampir yana gapga suqildi (Said Ahmad)¹⁹. Bu so'z, asosan, oddiy so'zlashuv uslubida ko'p qo'llanilib, tanbeh berish paytlarida og'zaki nutqda keng ishlatiladi: *Hadeb gapga suqilavermasdan, gapni gapga qo'shsang-chi!*

¹⁹ O'sha kitob. B.32.

Bosh, kalla – sinonimik qatori. Kishi tanasining bo‘ynidan yuqori qismi, hayvon, qushlarning tanasidan oldingi yoki yuqori qismi. *Kalla* ko‘p hollarda salbiy ottenkada qo‘llanadi.

“*Bir og‘iz gap bor*”, - dedi *Soli sovuq kallasini bo‘yin tomiri uzilib ketgudek egib* (M.Ismoilij). (66- b.) Og‘zaki nutqda bu so‘zdan turli iboralar tarkibida salbiy ma’noda foydalanish hollarini ham kuzatishimiz mumkin: *Kallasiga gap kirmaydi o‘zi bu bolaning*.

Burun, tumshuq. Hid bilish organi va uning yuzdagi tashqi qismi. *Burun* asosan odamga nisbatan, kam darajada hayvonlarga nisbatan qo‘llaniladi. *Tumshuq* so‘zi, aksincha, asosan hayvon va parrandalarga nisbatan, kam darajada odamga nisbatan qo‘llanadi. Odamga nisbatan qo‘llanganda hurmatsizlik, mesimaslik, nafrat ifodalanadi.

U bir ko‘ngli borib muttaham qozining tumshug‘iga tushirgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi (M.Ismoilij). O‘ylashimizcha, yuqoridagi gapga faqatgina *tumshuq* so‘zi emas, balki *muttaham, iflos, bashara* kabi salbiy so‘zlar ham ekspressiv bo‘yoq qo‘shgan. Shu sababli, yuqoridagi so‘zlar ta’sirida yozuvchi asarning ushbu o‘rnida *tumshuq* so‘zidan o‘rinli foydalangan.

Gavdali, barvasta, jussali, norg‘ul, qomatdor, barzangi. *Gavdasi* katta. *Barvasta* oddiy so‘zlashuvda juda kam uchraydi. *Norg‘ul* asosan yosh, yigit kishilarga nisbatan qo‘llanadi. *Barzangi* salbiy bo‘yoqqa ega.

U yurtga taniqli mardlarning biri,

Tanti, o‘ktam, barzangi, devkor (Mirtemir).

Barzangi so‘zining og‘zaki nutqda salbiy bo‘yoq kasb etish hollari juda ko‘p uchraydi: *Bir qancha barzangilar uyning kulini ko‘kka sovurdilar*.

Go‘r, qabr, mozor, lahad. Odam o‘ligi ko‘miladigan yoki qo‘yiladigan er (joy). *Go‘r* ba’zi hollarda salbiy ottenkada qo‘llanadi. *Lahad* – juda kam qo‘llanadi. *Mozor* bu ma’noda oddiy so‘zlashuvga xos.

Men yig‘layman! To o‘g‘limning go‘rini quchoqlab, tuprog‘ini yuzimga surtmagunimcha ko‘zimdanda yosh chiqmaydi... (A.Qahhor).

Og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan *bo‘yginang lahadda chirigur* iborasida ham *lahad* so‘zi salbiy ma‘noda ishlatiladi.: – *O‘shanda nega unaqa deding, bo‘yginang lahadda chirigur! – dedi u yana dag‘dag‘a bilan.* (O‘.Hoshimov)

Nutqimizda bu iboraning *bo‘yginang go‘rda chirigur* varianti ham mavjud bo‘lib, undagi *go‘r* so‘zi ham salbiy ma‘noda ishlatiladi: – *Onamni so‘kdi-ya, bo‘yginang go‘rda chirigur* (O‘.Hoshimov).

Daydimog, sanqimog, sandiroqlamog, tentiramog, laqillamog, salanglamog, sakillamog. Hech bir narsa qilmay, vaqtini behuda o‘tkazib kezib yurmog. *Daydimog, sanqimog, sakillamog* asosan, odamga, kam darajada hayvonga nisbatan qo‘llanadi. Qolganlari faqat odamga nisbatan qo‘llanadi. *Sanqimog, sakillamog* so‘zlarida salbiy bo‘yoq kuchli.

O‘rmonjon, avvalo, Mamarayim afandini tanimasdi, qolaversa, har qaerda sanqib yuradigan bebosh bola emasdi (M.Ismoilij).

Dafn etmog, ko‘mmog, qo‘ymog. Qabrga joylamog. *Ko‘mmog* salbiy bo‘yoqqa ega. *Qo‘ymog* oddiy so‘zlashuvga xos. Uning bu ma‘nosi ma‘lum kontekstda (situasiyada) aniq ifodalanadi.

Otabek eshikdan chiqqanda Sodiqni ko‘mib kelgan kishilar Qur‘on o‘qib tarqamogda edilar (A.Qodiriy). (86- b.)

Emog, tanovul qilmog, iste‘mol qilmog, totmog, olmog, tushirmog, urmog, ham qilmog. Organizmga taom qabul qilmog. *Tanovul qilmog, iste‘mol qilmog* kitobiy. *Totmog* oz miqdorda emogni bildiradi. *Olmog, tushirmog, urmog* oddiy so‘zlashuvga xos; *tushirmog, urmog* ko‘p miqdorda eyishni bildiradi va ma‘lum darajada salbiy bo‘yoqqa ega. *Ham qilmog* go‘dak nutqiga oid.

Jilmaymog, kulimsiramog, iljaymog, irjaymog, tirjaymog, ishshaymog, irshaymog. Ovoz chiqarmay ko‘z, lab harakati bilan kulgu ifoda qilmog, miyig‘ida kulmog. *Jilmaymog* va *iljaymog* so‘zlari stilistik jihatdan neytral hisoblanadi. *Irjaymog, tirjaymog, ishshaymog, irshaymog* so‘zlari salbiy ottenkaga ega. Bu salbiy ottenka *irjaymog* so‘ziga nisbatan *tirjaymog* so‘zida, *tirjaymog* so‘ziga

nisbatan *ishshaymoq* soʻzida, *ishshaymoq* soʻziga nisbatan *irjaymoq* soʻzida kuchliroq.

Qaydlarimizdan koʻrinadiki, neytral soʻzlar va emotsional leksik birliklar oʻzaro bir-biri bilan aloqaga kirishib, tildagi imkoniyatlarning qanchalik boy va rang-barang ekanini ifodalab beradi.

II. BOB.

1-§. UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLIGIDAGI SHE’RIY ASARLARNI O‘TISHDA USLUBIY BO‘YOQDOR SO‘ZLAR BILAN ISHLASH METODIKASI

3-sinf “O‘qish kitobi²⁰”da Abdulla Oripovning “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi”, “Sizga” she’ri, Shuhratning “Salom, maktab!” she’ri, “Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin” matni, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi”, O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i”, E.Malikovning “Vatanimiz gerbi – tug‘ro haqida ertak”, Alibek Rustamiyning “Bayroq nima?”, Abdulla Avloniyning “Vatanni suymak”, Xurshid Davronning “Vatan mo‘tabardir”, Oydin Hojiyevaning “Ona yurtning – oltin beshiging” matni, “Ona-Vatan”, Abdulla Avloniyning “Vatan haqida she’r” asari, “Toshkentim – onam”, Anvar Obidjonning “O‘ktam avlod” she’ri, “Til qudrati” rivoyati, Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim” she’ri, Erkin Vohidovning “O‘zbeğim” she’ri, Abdumajid Zokirovning “Ro‘zg‘or daftari”, Tohir Malikning “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi” matni, Hakim Nazirning “Dadam qurgan dengiz” hikoyasi kabi turli janrlarga mansub asarlar o‘quvchilarga taqdim etilgan.

Darslik bo‘limlarida Abdulla Oripovning “O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi”, “Sizga”, Shuhratning “Salom, maktab!”, Abdulla Avloniyning “Vatan haqida she’r”, “Toshkentim – onam”, Anvar Obidjonning “O‘ktam avlod”, “Til qudrati”, Tursunboy Adashboyevning “Ona tilim”, Erkin Vohidovning “O‘zbeğim”, Tolib Yo‘ldoshning “Kuz kelganda”, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot”, Quddus Muhammadiyning “Men dadamga yordamchi”, Shuhratning “Birinchi qor”, Hamidulla Yoqubovning “Qish zavqi”, Qudrat Hikmatning “Ayamajiz”, Erkin Vohidovning “Yangi yil archasiga”, Safar Barnoyevning “O‘zbekiston posbonlari”, Kavsar Turdiyevaning “Dunyoni saqlar bolalar”, Mahmud Dadaboyevning “Tinchlik”, Rauf Tolibning “Biz – istiqlol

²⁰ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch‘lpon, 2005. – 224 b.

farzandlarimiz”, Habib Sa’dullaning “Ikki ona”, Maqsud Shayxzodaning “Jigarlarga tilaklarim”, Zafar Diyorning “Bahor yaqin”, G‘ayratiyning “Boychechak”, Yusuf Shomansurning “Bayramingiz muborak”, “Daraxtlarni oqlaganda”, Cho‘lponning “Ko‘klam yomg‘iri”, Ilyos Muslimning “Lola”, Tolib Yo‘ldoshning “Non haqida”, Safo Ochilning “Ota-ona duosi”, Shuhratning “Qalamning o‘kinchi”, Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida”, Elbekning “Chumoli va chivin”, Berdaqning “Bolam”, Tolib Yo‘ldoshning “Hunarni sev”, Abdulla Avloniyning “Yoz”, Ilyos Muslimning “Quvnoq o‘tsin ta‘tilingiz” kabi lirik turga mansub she‘rlar berilgan.

Uchinchi sinf “O‘qish kitobi” darsligining lug‘at tarkibidagi so‘zlarda ham so‘zlovchining turli emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalash xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar qo‘llanilgan: *serquyosh, najot, to abad, porlasin, qudrat, mahliyo, diyor, iymon, mangu, azamat, o‘ktam, qoyilmaqom, boplamoq, olchoq, mal’un, razil, sanqi, qoyil, momoqaymoq, sevinch, quvonch, tabassum, dahshat, hiylagar umumbashariy, hayratomuz, daho, porloq, rahnamo, parisiymo, purma’no qoyil, do‘ndiq, do‘ndirmoq, mahluqo, diloro, jilmaymoq, tabassum qilmoq, munavvar, porloq, nurafshon, lobar, dildor, dilbar, mard, tanti, abadul-abad, abad, mumtoz, marhabo, hayratomuz, g‘azabkor, olamshumul, oliymaqom tannoz, afsungar, sayqal bermoq, qalqmoq, koshona, xirom, xushsurat, jilvakor, fusunkor, pariroy, oftobsiymo, hurmonand, hassos, lolagul, surur, nuroniy, malaksiymo, ajib, olijanob ustamon, nomard, ig‘vogar, sharmanda, makkor, o‘g‘ri, kazzob, surbet, ebtoyimas, badkirdor, o‘g‘riboshi, xoin, nonko‘r yuvundixo‘r, iflos, yaramas, noinsof, ablah, ko‘rnamak, o‘laksa, ityaloq, la‘nati, vatanfurush, imonsiz, olchoq, g‘alamis, mal’un, vaysamoq, valaqlamoq, valdiramoq, sanqimoq, daydimoq, tentiramoq, chaqchaymoq, tirrancha, shapshak.* Bu kabi uslubiy buyoqdor so‘zlar matn mazmunini ochishda, o‘quvchiga asar matnini tezroq va ta‘sirli etkazishda o‘zining aniq vazifasini bajaradi.

She'r – ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutq²¹. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi. Quyida lirik tur – nazmiy she'rlarni o'tish orqali uchinchi sinf o'quvchilarining vatanparvarlik xislatlarini o'stirish, o'qish malakalarini oshirish va usulubiy bo'yoqdor so'zlar ustida ishlash yuzasidan olib borgan tajriba ishlarimiz bilan o'rtoqlashamiz.

She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarini poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ya'ni she'riy hikoyalar va lirik she'rlar o'qitiladi. She'riy hikoyada syujet, ya'ni voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r “biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she'rning xususiyati “kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashga to'g'ri keladi”. Bunda “ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi”.

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy (g'oyaviy) mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi. Shuning uchun she'rni tahlil qilib, uning mazmunini o'quvchilarga tushuntirish lozim. She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilinganidagi ish turlaridan foydalanish mumkin. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she'rni o'qish darsida eng asosiy ish turi uni his-hayajon bilan ifodali o'qishdir. She'r ifodali o'qilgach, undagi tushuntirilishi zarur bo'lgan so'z va iboralar ikki-uch so'z bilan qisqacha izohlanadi.

She'rni o'qishdan oldin ba'zan unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim

²¹ Homidiy H. va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. – B.147.

bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa aytib beradi. Ba'zi she'rlarni o'qishga o'quvchilarni uzoqroq tayyorlash, masalan, Quدرات Hikmatning "Qish", "Bahor" she'rlarini o'qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o'tkazish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy formasi lirik she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham, she'riy hikoyani ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir, uning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari, she'r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

She'r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. O'quvchilarga she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Masalan, 3-sinf o'quvchilari Tolib Yo'ldoshning "Kuz kelganda" she'rni o'qiganda, "Qaysi fasl haqida o'qidingiz?" savoliga javob berishlari etarli, 3-sinf o'quvchilari Zafar Diyorning "Bahor yaqin" she'rini o'qiganda, o'qituvchi: "She'rda yilning qaysi fasli haqida o'qidingiz? (Bahor)". "Shamol haqida nima deyiladi? Terak, bedapoya, qushlar haqida-chi?" savollarini beradi. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi Vatan himoyasi, xalqimizning qaxramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'laroq taxlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga o'quvchilarni maxsus tayyorlanadi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqa so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi.

Bolalar she'ri yoqtiradilar. She'riy nutq engil yodlab olinadi, estetik his-tuyg'u uyg'otadi, kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o'qiydilar.

A.Oripovning "O'zbekiston Respublikasi madhiyasi" she'ri²²ni izohli o'qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);

2) she'rda tasvirlangan Vatanni ulug'lovchi ifodalar haqida suhbat (analiz):

3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);

4) uyda she'rni ifodali o'qish va yod aytib berishga tayyorlanish;

5) keyingi darsda she'rni ifodali o'qitish, ifodali yoddan aytirish.

"O'zbekiston Respublikasi madhiyasi" she'ri yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?

2. "Vatan" so'zi o'rnida yana qanday so'zlarni qo'llash mumkin?

3. O'zingiz yashayotgan shahar, qishloq, tuman, viloyat va kshcha nomlarini ayting.

4. She'rni yod oling.

Yuqoridagi savollarga javob olgach, she'r matni ustida quyidagicha ish olib borishni tavsiya qilamiz.

1. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

She'rdagi qofiyadosh so'zlar: najot – ijod; mehribon – jahon; O'zbekiston – zamon; yor – diyor; iymoni – posboni; qanot – obod.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,

Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!

Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,

Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat:

²² Umarova M., Hakimova SH. O'qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch'lpon, 2005. – 224 b.

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagay diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

Naqorat

2. She‘rning qofiyalanish tartibi qanday?

She‘rning qofiyalanish tartibi: a-b-a-b.

Shu o‘rinda qofiya haqidagi bilimlar yana bir bor esga olinsa ishning samarasi yana ham oshadi.

3. She‘r hijosini aniqlang.

She‘r hijosi:

Ser-qu-yosh, hur o‘l-kam, el-ga baxt, na-jot,
Sen o‘-zing do‘st-lar-ga yo‘l-dosh, meh-ri-bon!
Yash-na-gay to a-bad il-mu fan, i-jod,
Shuh-ra-ting por-la-sin to-ki bor ja-hon!
She‘r to‘qqiz hijoli, ikki turoqdan tuzilgan (6+5).

4. She‘rdagi qaysi so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilgan?

She‘rdagi quyidagi so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilgan: yashnagay to abad ilm-u fan, oltin vodiylar, olamni mahliyo aylagay diyor, bag‘ri keng o‘zbek.

5. She‘rda O‘zbekistonning tasviri qaysi so‘zlar bilan sifatlanayapti?

She‘rda O‘zbekistonning tasviri quyidagi so‘zlar bilan sifatlanayapti: oltin vodiylar, olamni mahliyo aylagay diyor.

6. She‘r matnidan qanday ta‘sirlandingiz? Taassurotlaringizni o‘z so‘zingiz bilan qanday ifoda eta olasiz?

Respublikamizda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning joriy etilib, o‘zbek tilini hayotimizning tarkibiy qismiga aylanishi yangi milliy siyosatimizning g‘alabalaridan biridir. Unga og‘ishmay rioya qilish davlat tilida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirish har bir jamiyat kishisi oldiga mas‘uliyatli vazifalar yuklaydi.

7. Uslubiy buyoqdor so‘zlar ustida ishlash.

Madhiya o‘ta ko‘tarinki ruh bilan qalbimizga jo bo‘ladi, shu sababli unda ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar talay: hur, najot, yo‘ldosh, mehribon, yashnagay, to abad, shuhrat, porlamoq, ulug‘, qudrat, jo‘sh urgan, mahliyo, diyor, bag‘ri keng, o‘chmas, iymon, ona yurt, mangu.

Ma‘lumki, matndagina buyoqdorlik kasb etadigan so‘zlar ham uslubiy vazifani oshiradi. She‘rda serquyosh, o‘lkam, el, baxt, ilm-u fan, ijod, oltin bu vodiylar, O‘zbekiston, ajdodlar, mardona, xalq, o‘zbek, avlod, posbon, qanot, istiqloq, mash‘al, haqsevar.

Serquyosh – quyosh nuri ko‘p tushadigan; quyoshli kunlari ko‘p. SHu kunlarda serquyosh respublikamiz dalalarida ish qizg‘in²³ deb “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ifoda etilgan.

Madhiyada serquyosh, hur o‘lkam, oltin vodiylar, O‘zbekiston so‘zlari dunyo mamlakatlari ichida Vatanimizni ajratib ko‘rsatishga ishlatiladi. Sevimli o‘lkamiz o‘zining quyoshsevar bo‘lganligi sababli unda etishtirilgan meva-yu poliz ekinlari dunyo ahlini lol qoldiradi. Mevasi kabi shirali xalqimiz ham mustaqillik tufayli olamni xayron-u lol qiladigan darajada buyuklikka erishdi. Shu sabab Vatanimizning 20 yillik to‘yini “Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!” shiori ostida bejiz nishonlamadik.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Ajdod – ilgari o‘tgan nasl-nasab, otaboblar”²⁴ deb izohlanib, uslubiy buyoqsiz so‘z sifatida keltirilgan. Ammo madhiya matnida bu so‘z ijobiy buyoqdorlik ifoda etadi. Mustaqilligimiz yillarida

²³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 3-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B.490.

²⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 1-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B.44.

imom al-Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimizdan az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandlarning tavallud sanalari nishonlanganligi... jamiyatimizning yuksalishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Biz uchun ajdod so'zi buyuk, ulug', ulkan, porloq, qudratli, pahlavon, dono kabi buyoqdorlik ifodalovchi so'zlar ma'nosiga teng. Ajdodlar ibрати avlodlar uchun namunadir.

Til – millatning tengi yo'q milliy boyligidir. Til mavjud ekan, millat ham zavol ko'rmaydi. Bu haqda Yusuf xos Xojib shunday deydi:

Tilingni avayla – omondir boshing,

So'zingni avayla, uzayar yoshing.

Madhiya nima?

Madhiyani yod oling.

Taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatovning so'zi bilan aytganda: “Toki tili bor ekan, xalqning umri boqiydir”. Til so'zlash vositasi nutq sifatida ko'ringandagina ma'lum vazifani bajaradi. Xalq ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi va ravnaq topishida hamda boy va go'zal ana shu qadriyatlar asosida yosh avlodni tarbiyalashda tilning ahamiyati beqiyosdir.

Ammo fikrlashish, birgalashib ishlash uchun berilgan tilimiz bir necha yillar davomida ko'rinmas zanjir bilan bog'lanib kelindi. Mustaqillikka erishganimizdan so'nggina, o'zbek tiliga e'tibor kuchaytirildi, uning qo'llanish doirasi kengaydi.

Yoshlar o'qishda va mehnat jarayonida nimagaki erishsalar, aql-zakovat, kuch va bilim bilan olg'a intilish tufayli erishadilar. Shubha yo'qki, bunda nutq odobi, ona tiliga e'tibor va hurmat asosiy o'rinni egallaydi. Negaki, bebaho va go'zal merosimiz, tariximiz butun jahonga ona tili orqali ko'zko'zlanadi. Til vositasida kishining odoq-axloqi, madaniyati, kamoloti aks etadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maskanlarida davlat tili orqali yoshlarni bugungi kunimizga mos odobli, yuksak madaniyatli qilib, ona Vatanga, ona tiliga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash pedagogik jamoalarning eng muhim vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

Abdulla Avloniyning “Yoz” she’ri²⁵ni izohli o‘qish darsining varianti sxemasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) she’r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o‘qib berish (birinchi sintez);
- 2) she’rda tasvirlangan bahor belgilari haqida suhbat (analiz):
- 3) she’rni ifodali o‘qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) uyda she’rni ifodali o‘qish va yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) keyingi darsda she’rni ifodali o‘qitish, ifodali yoddan aytdirish.

Yoz

Abdulla Avloniy

Yozda pishar barcha ekin, mevalar,
Shod bo‘ladur, katta-kichik bolalar.
Har yerga borsang, hamma ma’urchilik,
Handalagu, tarvuzu, qovun – tilik.
Bog‘lari, bo‘stonlari rang-barang,
Mevasi-yu, gullariga bir qarang.
Gullari, bulbullari bor, bog‘lari,
Qo‘ylari, qo‘zichoqlari bor, tog‘lari.
Sutlari, qaymoq-qimizlari serob,
Suvlar oqur, soylar aro sharqirab.
Bir tarafda ekinchi – xirmonchilar,
Bir tarafda o‘roqchi, ketmonchilar.
G‘ayratlilar g‘amini er vaqtida,
Tirishib ishlaydur g‘animat kunda.
Ishyoqmasar yozda yurur guldurab,
Qish kelganda, qolur ko‘zi mo‘ltirab.

“Yoz” she’ri yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. She’rda nima haqida so‘z boradi?

²⁵ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch’lpon, 2005. – B.207.

2. Sheʼrni ovoz chiqarib, ifodali oʻqing.
3. Vatanimiz qanday nom bilan ataladi?
4. “Vatan” soʻzi oʻrnida yana qanday soʻzlarni qoʻllash mumkin?
5. Oʻzingiz yashayotgan shahar, qishloq, tuman, viloyat va kshcha nomlarini ayting.

6. Sheʼrni yod oling.

Yuqoridagi savollarga javob olgach, sheʼr matni ustida quyidagicha ish olib borishni tavsiya qilamiz.

1. Sheʼrdagi qofiyadosh soʻzlarni aniqlang.

Sheʼrdagi qofiyadosh soʻzlar: mevalar – bolalar; rang-barang – qarang; bogʻlari – togʻlari; serob – sharqirab.

2. Sheʼrning qofiyalanish tartibi qanday?

Sheʼrning qofiyalanish tartibi: a-a-b-b.

Shu oʻrinda qofiya haqidagi bilimlar yana bir bor esga olinsa ishning samarasi yana ham oshadi.

3. Sheʼr hijosini aniqlang.

Sheʼr hijosi:

Yoz-da pi-shar bar-cha e-kin, me-va-lar,

Shod boʻ-la-dur, kat-ta-kich-ik bo-la-lar.

Har yer-ga bor-sang, ham-ma maʼ-mur-chi-lik,

Han-da-la-gu, tar-vu-zu, qo-vun – ti-lik.

Sheʼr toʻqqiz hijoli.

4. Sheʼrdagi qaysi soʻzlar koʻchma maʼnoda ishlatilgan?

Sheʼrdagi quyidagi soʻzlar koʻchma maʼnoda ishlatilgan: sharqirab, guldurab, koʻzi moʻltirab.

5. Sheʼrda yozning tasviri qaysi soʻzlar bilan sifatlanayapti?

6. Sheʼr matnidan qanday taʼsirlandingiz? Taassurotlaringizni oʻz soʻzingiz bilan qanday ifoda eta olasiz?

2-§. UCHINCHI SINIF O‘QISH DARSLIGIDAGI EPIK TURGA MANSUB ASARLARNI O‘RGATISHDA BUYOQDOR SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH YO‘LLARI

Bitiruv malakaviy ishimizning bu bo‘limida 3-sinf o‘qish darslarida nasriy asarlari ustida ishlashda o‘quvchilarni uslubiy buyoqdor so‘zlar bilan ishlashga o‘rgatishga bag‘ishlanganligi sababli shu sinf o‘qish darsligidagi epik asarlarga atroflicha to‘xtalsak. Darslikda²⁶ epik turga mansub hikoya, ertak, rivoyat, afsonalar keltirilgan. Alibek Rustamiyning “Bayroq nima?”, Avloniyning “Vatanni suymak”, Xurshid Davronning “Vatan mo‘‘tabardir”, Tohir Malikning “Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi”, Malik Murodovning “Mehrijon sayli”, Nurmat Maqsudiyning “Ilmli ming yashar”, O‘.Hoshimovning “Xazonchinak”, K.Ersarinning “Va‘da berdi”, Erkin Malikovning “Toshkent”, Oybekning “Mehnatkash qiz”, M.Murodovning “Kitob”, Oydinning “Oltmish gaz arqon”, O‘.Hoshimovning “Chana”, A.Ahmedovanning “Qish ertagi”, Safar Barnoyevning “Bobonur”, Farhod Musajonovning “Yaxshilik” kabi epik turga mansub asarlari berilgan.

Yuqoridagi nasriy asarlarda ijobiy va salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan quyidagi so‘zlar keltirilgan: “Til qudrati” rivoyatida farishta, ajnabiy, fido qilmoq, donishmand, huzuriga, nizo, ma‘qul; “Botir mergan va chaqimchi” ertagida o‘tyurak, mergan, chaqimchi, olampanoh, taqsiri olam, taqsir, erkalik; “Ahillik – ulug‘ baxt” ertagida bolajonlarim, dushman, inoq, naql; “Halolik” ertagida dehqon, jo‘jabirday, o‘g‘ri, jinoyatchi, etim-esir, beva-bechora, murod-u maqsad; “Donishmand yigit” ertagida gunohkor, hasadgo‘y, donishmand, aql, zakovat; “Rustamxon” dostonidan olingan parchada suyukli, rafiqa, ziyoda, kundosh, g‘ashlik, jamoli, ajdaho, begijon, nasib, ot o‘ynatib, haybat, zo‘ravon, Rustambek, qaysar; “Chumoli va tipratikan” masalida badnafs, o‘g‘rilik, halollik, sheryurak, jonsarak; M.Murodovning “Olma” hikoyasida yashanglar, azamatlar, bo‘taloqlarim, Sodiqjon; “Bobur va kabutar” rivoyatida ziyrak, qasr, jonivor,

²⁶ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch‘lpon, 2005. – 224 b.

xushxabar, oliy hazrat, topqirlik, bois; “Bebaho boylik” buvajon, qimmatli, oltin – zo‘r, oro kirmoq, bebaho; Nurmat Maqsudiyning “Ilmli ming yashar” hikoyasida Yolqinjon, hayrat, tovlanmoq, sohibkor, usta; O‘tkir Hoshimovning “Xazonchinak” hikoyasida lovillab ko‘rinmoq, qichqirmoq, quvonib ketmoq; Abdusodiq Irisovning “Qo‘shterak” hikoyasida antiqa, soz bo‘lmoq, boqiy, dang‘illama, zavq; K.Versarinning “Va‘da berdi” hikoyasida sevinchi, ichiga sig‘maydi, dadajon, aziz, jilmaymoq; Erkin Malikovning “Toshkent” hikoyasida qora chiroq; “Jaloliddin Manguberdi” matnida g‘alaba qozonmoq, dushman, istak, sodiq, mardlik; Oybekning “Mehnatkash qiz” hikoyasida shinam, mehnatkash, istamoq, ziyrak; “O‘g‘lon” hadisdan parchada qaroqchi, qaroqchiboshi, dovyurak, jasur, makon, og‘alar, hazrat, payg‘ambar, ajoyib; M.Murodovning “Kitob” hikoyasida ulamo, non; “Bola Alisher” matnida mag‘rur, pokiza, mo‘‘tabar, hurmatli, ehtirom, taqsirim, ulug‘vor; “Cho‘pon yigit Shiroq” afsonasida qulingiz, shahanshoh, ona tuproq, Oydinning “Oltmish gaz arqon” ertagida yov, javdiramoq; Safar Barnoyevning “Bobonur” hikoyasida chaqnamoq, bibijon, nevaraginam.

Quyida darslikdagi nasriy turga mansub janrlarni o‘qitishda uslubiy buyoqdor so‘zlar bilan ishlash yo‘llari haqida suhbatlashsak.

Hakim Nazirning “Dadam qurgan dengiz” hikoyasi²⁷da hovliqmoq, chug‘urlashmoq, o‘jar, hayqirmoq, angrayib qolmoq, sharqiramoq kabi uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar uchraydi.

Qodirjonning dadasi anchadan beri qurilishda katta muhandis. To‘g‘risi muhandis nima ish qiladi, o‘zi ham bilmaydi. Oyisidan so‘rasa:

– Daryoni bo‘g‘adi, suv ombori quradi, – dedi.

– Daryoni qanaqa qilib bo‘g‘adi? Suv ombori qanaqa bo‘ladi? – desa, onasi yana:

– Baribir tushunmaysan, Qodirjon, hali yoshsan, – dedi.

O‘qishlar tugab yozgi ta‘til boshlandi. O‘qituvchi bolalarni sayohatga olib bordi.

²⁷ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch‘lpon, 2005. – B.23.

Suv ombori maktabdan ancha uzoqda ekan. Mashina qir oshdi, soy oshdi, uzoq yurdi. Allamahalda suv omboriga etib keldilar. Bolalar omborni ko‘rib hovliqishdi:

– Dengiz. Bu dengiz – deb chug‘urlashib yuborishdi.

Ha, dengiz juda katta bo‘ladi, qirg‘oqlari ko‘rinmaydi, deyishardi. Bu ham shunaqa, qirg‘oqlari osmonga tutashib ketganday. Suvi shishaday, lekin daryoga o‘hshab oqmaydi, vahima bilan chayqaladi, tog‘-rog‘ bo‘lib to‘lqin uradi. Galagala qaldirg‘och, oqqushlar kumush to‘lhinlarga ko‘kraklarini urib o‘ynashadi. Qodirjon u erda dadasini topib oldi...

II

Rustam aka bolalarning qurilishni ko‘rgani kelganiga xursand bo‘ldi. U bolalarni avval to‘g‘onga olib chiqdi. To‘g‘onning hamma yog‘i bitondan ekan.

– Shunday mustahkam ishlanganki, ming yilda ham buzilmaydi. Uzunligini aytmaydizmi, bu boshidan u boshi ko‘rinmaydi. Shu to‘g‘on filday uzula tushdi-yu, o‘jar daryoni xippa bo‘g‘di. Shu bilan daryoning arslonday hayqirib-pishqirishlari to‘xtadi. Ilgari uning ko‘p suvi bekorga oqib ketardi. Atrofdan qancha-qancha erlar suvga tashna bo‘lib qovjirab yotardi-yu, suvni dalaga chiqarib bo‘lmasdi. Endi-chi! Endi daryoning bir tomchi suvi ham behuda isrof bo‘lmaydi. Uni omborga qamab oldik. Yoz bo‘yi suvni dalalarga keragicha, mo‘ljil bilan chiqaramiz – dedi Rustam aka.

Bolalar:

– Qanday qilib? – deb angrayib qolishdi...

1. Hikoyaning o‘zingizga yoqqan qismi mazmunini qayta so‘zlab bering.
2. Ikkinchi qismdan Rustam akaning gapini o‘qing. Mazmunini esingizda saqlab qoling.
3. Har bir qismga sarlavha qo‘ying.
4. Siz ham to‘g‘on va kanallarni ko‘rganmisiz? Tasvirlab bering.

Hikoya matnini o‘qituvchining ifodali hikoyasi va uch abzasni ifodali o‘qishi bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Matn o‘qib chiqilgach, matndagi qiyin

soʻzlar izohi beriladi. Qiyin soʻzlarni oʻqituvchi oʻquvchilardan soʻragini maʼqul. Oʻquvchilar bilganlaricha oʻz javoblarini bersalar, oʻqituvchi albatta, toʻldirishi lozim. Matndagi xarita, nochor, izmiga, toqati yoʻq soʻzlari izohlanadi.

Shundan soʻng quyidagicha savol va javob oʻtkaziladi:

1. Muhandis qanday kasb ekan?
2. Suv ombori nima sababdan qurilar ekan?
3. Siz suv omborini qanday tasavvur qildingiz?
4. yurtimizdagi qaysi suv omborlarini bilasiz?

Savol va javob oʻtkazilgach, matnni tanlab oʻqitiladi. Chunki sinfdagi barcha oʻquvchilar matnni hali ifodali oʻqishga tayyor emas. Uch-toʻrt oʻquvchiga asar tanlab oʻqitilgach, matnga sarlavha toptiriladi.

Matnga “Suv ombori”, “Sayohat”, “Dengiz” kabi sarlavhalar taklif etiladi.

Sarlavha topilgach, bolalarga musobaqa asosida ifodali oʻqishni tashkillash kerak. Bolalar bu ish turini juda xursandlik bilan kutib oladilar, negaki bu yoshdagi bolalarda ochiq maydonda jang – musobaqa olib borish juda yoqadi-da.

Shundan soʻng bolalar bilimni tartibga solish maqsadida reja tuzdirib koʻrish kerak.

Reja:

1. Qodirjonning dadasi – muhandis.
2. Suv omboriga sayohat.
3. Rustam akaning hikoyasi.
4. Bolalar sayohatdan xursand boʻlishdi.

Oʻquvchilar yuqoridagi reja asosida asarni qayta bayon qiladilar. Qayta bayonda oʻquvchilar hikoyani tartib bilan olib boradilar.

Hikoyadagi hovliqmoq, chugʻurlashmoq, oʻjar, hayqirmoq, angrayib qolmoq, sharqiramoq kabi uslubiy boʻyoqdor soʻzlar ustida tajribamizda quyidagicha ish olib bordik:

Hovliqmoq – shoshib-pishib, shoshma-shosharlik bilan harakat qilmoq²⁸. Hikoyada “Bolalar omborni ko‘rib hovliqishdi” gapi ishlatilgan. Hovliqmoq so‘zi shoshmoq, oshiqmoq so‘zlari bilan ma‘nodoshlik hosil qilib²⁹, matnda bolalarning suv omboriga etib borgach, uni ko‘rib tezroq mashinadan tushib tomosha boshlash uchun oshiqish holati ifoda etilgan.

Biror ish harakatni, maqsadni amalga oshirish uchun tez harakat qilmoq yoki uning amalga oshishini sabrsizlik bilan kutmoq. Oshiqmoq so‘zida harakatdagi tezlik, kutishdagi sabrsizlik darajasi kuchliroq, hovliqmoqda esa undanda kuchli sabrsizlik ifoda qilinadi. Bolalar birinchi marta suv omborini ko‘rganliklari uchun ularning hayajoni, omborga etishish holati tavsir etilgan.

Bu o‘rinda shoshmoq, hovliqmoq, oshiqmoq so‘zlari ishtirokida gaplar tuzdirish maqsadli hisoblanadi: Hovliqqanimdan halloslab, o‘pkam tiqilib qolgan ekan.

O‘jar – to‘g‘ri, maqbul maslahat, gap-so‘zga quloq solmay, yon bermay, o‘z fikrini ma‘qullayveradigan; gap uqmaydigan, qaysar³⁰.

Hikoyada o‘jar so‘zining boshqalar izmiga yurmaydigan, bo‘ysunmas ko‘chma ma‘nosi ishlatilgan. O‘jar bola – o‘jar tabiat.

Matnda “Shu to‘g‘on filday uzala tushdi-yu, o‘jar daryoni xippa bo‘g‘di” gapi keltirilib, o‘jar so‘zi daryoga nisban ishlatilganda qaysar, sarkash ma‘nodoshlarini ham qo‘llash mumkinligi uqtiriladi.

Epik asarlar ko‘lamdorligi tufayli syujeti, kompozision tuzilishi, adabiy qahramonlar tizimi bo‘yicha qat‘iy reja asosida o‘rganishni taqozo etadi. Asar tahlilida badiiy matn uning poetik xususiyatlarini o‘rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, sharhli yoki ijodiy o‘qish, keng qamrovli, siyosiy, muammoli, tadqiqot, noan‘anaviy usullardan foydalanganda ham asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, yuqori sinflarda asar syujeti, kompozisiyasi, bosh qahramonlar timsolini o‘rganish bo‘yicha o‘tkaziladigan turli tipdagi tahlillar matn

²⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 5-tom. – Toshkent: O‘ME, 2008. – B.541.

²⁹ O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – B.229.

³⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 5-tom. – Toshkent: O‘ME, 2008. – B.133.

ustida ishlash asosida olib borilsa, o‘quvchilarning ijodiy faolligi oshadi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi.

Nasriy asarlar ustidagi adabiy-estetik tahlil o‘quvchining bilimini boyitsin, hissiyotiga cheksiz ta’sir ko‘rsatsin, aqlini charxlab, nutqini o‘stirsin. Buning uchun o‘qituvchi adabiy-estetik tahlil bilan bog‘liq vazifa va topshiriqlarning o‘quvchilar tomonidan aniq va to‘la tushunilishiga erishishi, beriladigan bilimlarning ular yoshiga mos bo‘lishini hamisha diqqat markazida tutishi lozim. Bu esa uzluksiz adabiy ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari va qiziqishlarini inobatga olgan holda matn ustida ishlashga tayyorlab borishni taqozo etadi. Negaki adabiy ta’limning bosh vazifasi o‘quvchilarning badiiy adabiyot namunalarini shunchaki o‘qib qo‘ya qolmasdan, balki ularning ruhiyatiga, sehrlil olamiga chuqur kirish, his etish va anglashlariga erishishdan iboratdir.

Quyida Zahridin Muhammad Bobur hayotiga oid “Asotirlar va rivoyatlar”dan olingan “Bobur va kabutar” matni³¹ ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ifodali o‘qishlarini o‘stirish, so‘z ma’nosi ustida ishlash malakalarini rivojlantirishda uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar bilan tanishtirish yuzasidan fikrlashsak. Rivoyatning mazmuni quyidagicha:

Bobur va kabutar

Mirzo Bobur yoshligidan ziyarak bola bo‘lib o‘sibdi. Bir kuni uning otasi Umarshayx saroy a’yonlari bilan qasrda o‘ltirgan ekan. Bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo‘nibdi-da: “G‘ulu-g‘ulu-g‘u-g‘u” qilaveribdi. Umarshayx a’yonlaridan: “Kabutar ne deydu?” – deb so‘rab qolibdi. A’yonlar anchadan beri urush ko‘rmay, qilichlari qonsirab qolgan ekan. Ular: “Oliy hazrat, kabutar qilichlarni qindan sug‘urmoq kerak”, – deydu deb javob berishibdi.

Gapga aralashmay bir chekkada jim o‘lturgan Mirzo Bobur: “Yo‘q, kabutar unday demaydu, ota, u qovun sayliga chaqiribdu. Jonivor xushxabar keltiribdu”, – debdi.

³¹ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch’lpon, 2005. – B.54.

Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelishibdi. Uning oyogʻidagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi.

Xatda: "Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qoʻl urib bersalar", – deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi toʻgʻri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx oʻgʻlidan: "Bunchalik topqirligingga bois nedur?" – deb soʻrabdi.

"Ota, bu kabutarga eʼtibor qiladingiz. Oʻtgan yili qovun sayli xushxabarini xuddi shu jonivor olib kelgan edi. Kaminaning koʻzi kabutarning oʻng qanotidagi qora xolga tushgan erdi. Shu zahoti ani tanidim va shu soʻzni taxmin etdim", – deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx aʼyonlarga qarab: "Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir," – debdi.

Matn oʻqituvchining ifodali hikoyasi va uch abzasni ifodali oʻqishi bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Matn oʻqib chiqilgach, matndagi qiyin soʻzlar izohi beriladi. Qiyin soʻzlarni oʻqituvchi oʻquvchilardan soʻragani maʼqul. Oʻquvchilar bilganlaricha oʻz javoblarini bersalar, oʻqituvchi albatta, toʻldirishi lozim. Matndagi saroy aʼyonlari, ayvon peshtoqi, kamina soʻzlari izohlanadi.

Shundan soʻng quyidagicha savol va javob oʻtkaziladi:

1. Umarshayx aʼyonlardan nimani soʻradi?
2. Aʼyonlar nima deb javob berishdi?
3. Boburning ziyrakligini nimada koʻrasiz? Matndan shu oʻrinni toping.
4. "... qilichlar qonsirab qolgan" iborasini qanday tushunasiz?

Savol va javob oʻtkazilgach, asar tilida uchragan eski turkiy til namunalari keltirib, oʻquvchilarga sharhlatiladi: oʻltirgan ekan, ne deydur, chaqiribdur, keltiribdur, bois nedur.

Rivoyat matni shundan soʻng tanlab oʻqitiladi. Chunki sinfdagi barcha oʻquvchilar matni hali ifodali oʻqishga tayyor emas. Uch-toʻrt oʻquvchiga asar tanlab oʻqitilgach, matnga sarlavha toptiriladi. Oʻquvchilar oʻzlarining "Ziyrak bola", "Dono javob", "Aql – inson bezagi" kabi sarlavhalarini taklif etadilar. Eng maʼqul sarlavhani albatta, oʻqituvchi tanlagani maqsadga muvofiqdir. Sarlavha

topilgach, bolalarga musobaqa asosida ifodali o‘qishni tashkillash kerak. Bolalar bu ish turini juda xursandlik bilan kutib oladilar, negaki bu yoshdagi bolalarda ochiq maydonda jang – musobaqa olib borish juda yoqadi-da.

Shundan so‘ng bolalar bilimini tartibga solish maqsadida reja tuzdirib ko‘rish kerak.

Reja:

1. Kabutarning xushxabar olib kelishi.
2. Kabutar tashrifiga a‘yonlarning munosabati.
3. Boburning dono fikri.
4. Hamma lol-u xayron.

O‘quvchilar yuqordagi reja asosida asarni qayta bayon qiladilar. Qayta bayonda o‘quvchilar hikoyani tartib bilan olib boradilar.

Matn o‘zlashtirilgach bolalardan Mirzo Boburning hayoti va faoliyatiga doir tarixiy ma‘lumotlar asosida suhbat tashkillanadi.

Zahriddin Muhammad Bobur buyuk temuriylardandir. U to‘qqiz yoshidayoq Andijon taxtining podshosi darajasini egalladi. Ammo shafqatsiz hayot uning boshiga ne kunlarni solmadi. U davlat tinchligi, yurt farovonligi uchun bor kuchini ayamay janglarda ishtirok etdi. Vatandan ayriliq, do‘st deb ishontirganlarning xiyonati uning boshiga qanchalar azoblarni solmadi, ammo bularning bariga Bobur sabr-u bardosh bilan chidadi. O‘z yurtidan ayrilib bir umr hind yurtida sargardonlik uning buyuk orzularini amalga oshirishga to‘siq bo‘ldi. Bobur shunga qaramay buyuk ishlar qilishga erishdi: “Devon”, “Muxtasar”, “Mubayyin”, “Boburnoma” singari jahon adabiyoti durdonalarini etishtirdi. Boburning kelajagi Alisher Navoiyni ham juda qiziqtirgan, shuning uchun buyuk Navoiy Boburshohga maktub yo‘llab uning ishlariga oq yo‘l tilagan.

Matndagi bo‘yoqdor so‘zlar: ziyrak, qasr, oliy hazrat, topqir uchraydi. Bu o‘rindagi so‘zlar aslan bo‘yoqqa ega bo‘lmasa-da, matnda bo‘yoqdorlik bildiradi.

O‘zbek xalqimizning faxri sanalmish Bobur mirzo ismi ham biz uchun ijobiy bo‘yoqdor ma’no ifodalaydi. Negaki millatimiz bu ism zamirida jasurlik, donolik, vatanparvarlikni his etadi, shu sababli o‘z farzandlariga Bobur deb ism qo‘yadilar.

Mustaqilligimiz ijodkor: “Shu o‘rinda biz bu o‘ta muhim masalaga qanday e’tibor berganimiz va uni bosqichma-bosqich hal qilib kelayotganimiz haqida to‘xtalib o‘tish joiz, deb o‘ylayman. Jumladan, 1994- yili 22- sentabrda parlament minbaridan yaqin tariximizda boshimizdan kechirgan voqealar, ya’ni, millatimizning qadr-qimmati, sha’ni va nomusi poymol qilingani, ko‘hna tariximiz va muqaddas qadriyatlarimiz toptalgani haqida quyidagi dardli-iztirobli fikrlar bildirilgan va ba’zi bir g‘oyat qiyin, ammo tabiiy savollar o‘rtaga tashlangan edi:

– O‘zingiz o‘ylab ko‘ringlar, aziz do‘stlar, mustabid tuzum, mustamlakachilik davrida biz kim edik?

– Taqdirimiz, erkimiz kimlarning qo‘lida edi?

– Ka’ba deb qaerga sig‘inar edik? Har tong «Assalom!..» degan madhiya ohanglari ostida kimlarga qulluq qilib uyg‘onardik?

Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning muqaddas xoklariga e’tibor bormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning buyuk nomlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi?

– Milliy g‘ururimiz, insonlik sha’nimiz, urf-odatlarimiz qanday tushunchalarga almashtirilgan edi?

– Xo‘sh, o‘zimiz-chi? O‘zimiz o‘zligimizni bilarmidik? Qanday mo‘‘tabar zamin, ulug‘ ajdodlarimizning o‘lmas meroslari bilan oziqlangan elning farzandlari ekanimizni anglarmidik?

– Aytinglar, o‘sha kezlari O‘zbekistonni dunyoda birov bilarmidi? Birov biz bilan hisoblasharmidi?

– Yurtimiz qanday va qancha beqiyos boyliklar xazinasi ekanidan qay birimiz xabardor edik?

– Go‘yo milliy iftixor bo‘lmish paxta, haqiqatda milliy g‘urur o‘rniga bo‘yinturuq bo‘lib, xalqimizni yalangoyoq qilishdan, boshimizga azob-uqubat, ta’na-malomatdan boshqa nima keltirardi?»

Darhaqiqat, yaqin tarixda xalqimiz o‘z boshidan kechirgan bunday azob-uqubatlarni, taqdirimiz jar yoqasida turgan mash‘um kunlarni unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q»³² deganlarida qanchalar haq ekan.

3-§. UCHINCHI SINIF O‘QISH DARSLIGIDAGI ILMIY-OMMABOP MATNLARNI O‘TISHDA USLUBIY BO‘YOQDOR SO‘ZLAR BILAN ISHLASH

Amaldagi 3-sinf darsligi³³da “Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i”, Alibek Rustamiyning “Bayroq nima?”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi”, “Toshkentim – onam”, “Oltin kuz”, “Erta bahor”, “Navro‘z – bahor bayrami”, “Eng muqaddas kun” kabi ilmiy-ommabop matnlar berilgan.

Ilmiy-ommabop maqolalar badiiy janrning boshqa turlaridan birtalay o‘rinlari bilan farqlanadi. Bunday matnlarni o‘qitishdan asosiy maqsad bolalarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, bolalarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o‘rgatishdan iboratdir. Ilmiy prozada real muhit faktlarini kuzatish natijasining mantiqiy umumlashmalari va xulosalari hisoblangan aniq tushunchalar aks ettiriladi.

Tabiatshunoslikka va tarixiy mavzudagi maqolalarni o‘qish bilan bog‘liq holda tabiat hodisalarini kuzatish (masalan, daraxt kurtaklarining bo‘rtishi), o‘quvchilarni yuz bergan o‘zgarishlarni, zavodlar, elektr stansiyalarini qurilishi kabi buyuk tarixiy voqealarning guvohi va ishtirokchilari bo‘lgan kishilar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

³² Karimov I.A. Yusak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.6.

³³ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch’lpon, 2005. – 224 b.

Ilmiy-ommabop matnni o'qishda mavzuga bog'liq kuzatish, ekskursiya, predmet darslarni mo'ljallash maqsadga muvofiqdir. Masalan, yil fasllari (kuz, qish, bahor, yoz)da mavsumiy tabiat hodisalari (ob-havoning o'zgarishi, o'simlik va hayvonlarning hayoti)ni, kishilarning mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog', xiyobonlarga) ekskursiyalar o'tkazish ko'zda tutilsa juda maqsadli bo'ladi.

Tabiatga qilgan sayohatlar bilan bog'liq holda predmet darslar o'tkazilib, o'quvchilarning o'zlari yiqqan, shuningdek, o'qituvchi olib kelgan daraxt kurtaklari, gullar, turli o'simlik va boshqalar o'rganiladi. Ekskursiyada ko'rganlaridan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan bolalarning nisbatan uzoq kuzatishlari uyushtiriladi. Predmet darslarida ko'rgazma sifatida o'quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin. Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog'lab o'qitish kishilar ilgari baxtli hayot uchun, o'z hayotlarini yaxshilash uchun, ota-bobolarimiz dushmandan vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib etishga yordam beradi; bolalar mehnat hayotning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati, kurashi haqida yangi bilim berish bilan birga, bolalarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, ularda materialistik dunyoqarashni shakllantiradi, mehnat qilish zarurligini tushunishlariga yordam beradi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti (jadvali) asos qilib olinadi:

1) o'qiladigan matn yuzasidan bolalar tajribasi va bilimni aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o'tkazish;

2) maqolani yoki uning bo'limini o'qish, ayrim so'zlarning ma'nosini tushuntirish;

3) maqola yoki uning bo'limi rejasini tuzish;

4) o'qilgan maqola yuzasidan suhbat;

5) o'qilgan bo'limni asosiy mazmunini aniqlash va reja qismlarini yozish;

6) reja asosida maqolani qayta o'qish;

7) maqolani yaxlit o‘qish; bunda bolalarni qayta himoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o‘zlashtirishlariga erishish maqsadi ko‘zda tutiladi;

8) xulosalash va umumlashtirish;

9) reja asosida qayta hikoyalash.

Ilmiy-ommabop maqolalar bolalarni gazeta va jurnallarni o‘qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o‘stiradi.

O‘quv materiali. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi³⁴

Darsning maqsadi.

1. O‘quvchilarga Vatanimiz ramzi – O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi haqida ma’lumot berish.

2. Mustaqillikning mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini ochib berish.

3. O‘quvchilarning O‘zbekiston taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarini boyitish.

4. O‘quvchilarni allomalarimiz kabi mard, jasur, haqsevar, elparvar, vatan uchun qayg‘uradigan insonlar qilib tarbiyalash.

5. O‘quvchilar nutqiga allomalarimiz ismlarini, O‘zbekiston bug‘doyi, bug‘doy zahirasi, dunyo darvozalari, ko‘zimiz ochilib, qayta tug‘ilmoq kabi so‘z va iboralarni kiritish, bog‘lanishli nutqlarini o‘stirish.

Dars turi. Yangi bilim beruvchi, ilmiy-ommabop asar o‘rganiladigan dars.

Dars metodi. Izohli o‘qish, suhbat, aqliy hujum metodi.

Dars shakli. Noan’anaviy dars – sayohat darsi.

Darsning jihozi. Allomalarimizning portreti, allomalar uchun qurilgan maqbara, xotira maydoni, shahidlar qabristoni tasvirlangan rasmlar.

Tashkiliy qism. Sinf to‘plangan materiallar asosida bezatiladi. Sinfning markaziga I. A. Karimovning rasmi qo‘yiladi.

Sinfning bir qismi Buxoro, bir qismi Samarqand, bir qismi Shahrisabz, bir qismi Toshkent va hokazolarga ajratiladi. Har birining tepasiga shu nomlar yozib ilib qo‘yiladi. Uning ostiga shu shaharlarda yashab ijod etgan allomalarimiz, davlat

³⁴ Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch’lpon, 2005. – B.8.

arboblari, shoir va yozuvchilar, umuman mashhur tarixiy shaxslarning portretlari osiladi, tagiga nomlari, qilgan ishlari yoki gaplari yoziladi, ular uchun qurilgan maqbaralar tasvirlangan rasmlar qo‘yiladi.

Darsning borishi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kuylanadi.

Madhiyadan so‘ng o‘quvchilar xor bo‘lib, «Mustaqillikni mustahkamlashga o‘z hissamizni qo‘shishga va’da beramiz» deb qasamyod qiladilar.

O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning portretiga qaratadi:

– Doskaning yuqori qismiga kimning portreti qo‘yilgan?

– I. A. Karimovning xizmatlari haqida nimalar bilasiz?

– Portret tagidagi gapni o‘qing. Bu gap kimlarga qarata aytilgan? “Sog‘lom, ilmi va fidoyi farzandlari bo‘lgan xalq albatta o‘zining kelajagini barpo etadi”.

I.A.Karimov.

– Prezidentimiz kutgandek inson bo‘lish uchun nima qilishimiz kerak?

– Prezidentimizning belgilab bergan istiqloq yo‘lidan og‘ishmay borishimiz kerak.

– Ma’naviy jasorat – eng buyuk jasoratdir. “Ma’naviy jasorat” tushunchasini anglamog‘imiz shart. Ma’naviy jasorat butun bashariyatga xos xususiyat bo‘lib, uni barchamiz egallamog‘imiz kerak. Ma’naviy jasoratga qodir inson fazilatlari qanday bo‘lishi kuerak? Haqiqiy qahramonlik mezonlari bobolarimiz tomonidan belgilab berilgan. Fidoyilik – buyuk qalb va metin iroda dalili. Fidoyilik – yuksak fazilat sanaladi. Akademik Yahyo G‘ulomov, Xalq shoiri Zulfiya, O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafutdinovning ibratli hayoti va faoliyati yuzasidan bolalarga hikoya qilinadi. Fidoyi insonlar – xalq faxri va g‘ururi. Ma’naviy jasorat hissi bilan yashash barchaning burchi. Mustaqillik – xalqimizning eng buyuk ma’naviy jasorati. Ma’naviyat – uzluksiz jarayon.

Ma'naviy yuksalishning davomli yo'li biz tomonimizdan bosib o'tiladi. Ma'naviy yuksalish sari doimiy intilish vatanparvar O'zbekiston grajdanining yo'li. Xalq – ulug' va sharaflı yo'ldagi karvondır.

2. O'quvchılarnı asarnı o'qıshga tayyorlash. Sınf bo'ylab sayohat.

O'qıtuvchi: – Bugun biz tarixiy shaharlarga sayohat uyushtıramız. Sız 4 guruhga ajralıb, tarixiy shaharlarga borasız. Har bir guruh o'zi borgan shaharda yashagan allomalarnı, ular haqidagi fikrlarnı, tarixiy obidalarnı, ishlab chıqarish korxonalarını yaxshılab o'rganadı. So'ng u haqda gapırıb beradı.

O'quvchılar «Toshkent», «Buxoro», «Shahrisabz», «Samarqand» guruhlarıga ajratıladı. (o'qıtuvchi shahar yoki viloyatlarning bırı o'rnıga o'zlari yashab turgan viloyat yoki shaharnı tanlashı mumkin). So'ng boshqa shaharlarga ham o'tıb, u joylarnı ham tomosha qiladı. Bunga 5–6 daqıqa berıladı.

3. Sayohat yuzasidan suhbat.

– «Toshkent» guruhi, sayohat davomida nimalarnı bilıb oldingız?

– «Shahrisabz» gumbazi, sayohat sızda qanday taassurot qoldırdı?

– «Samarqand» guruhi, bu shahar o'zıda qanday sırlarnı saqlagan ekan?

– Buxoro guruhi, bu shahar allomalari, ustalari, tarixiy binolar sızda qanday taassurot qoldırdı?

O'qıtuvchi o'quvchılarning javobını umumlashtıradı va «1991- yil 31- avgust tarix sahıfalarıga qanday kun bo'lib kirdı?» savolını beradı.

4. Yozuvchi haqıda ma'lumot.

5. Asar bilan tanishtırısh. o'qıtuvchi asarnı ifodali o'qıb berıshdan oldın «Men asarnı o'qıb beraman. Sız diqqat bilan tinglang, so'ng matn yuzasidan savollar beraman» deb o'quvchılarnı ogohlantıradı.

7. Asar matnı ustıda ishlash.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi

Gerb – davlat, shahar, tabaqa, urug'larning pul, muhr va shu kabilar tushirilgan belgi. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992- yil 2- iyul kuni tasdiqlandı.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasvirida ham o‘ng tomonida bug‘doy boshqolari, so‘l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir. Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir. Gerb markazida himmat, oliyjanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi respublika bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga O‘ZBEKISTON so‘zi bitilgan.

“Gerb” so‘zining tarixi haqida qisqacha ma’lumot: “gerb” so‘zi nemischa “erbo” so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan sarhadda hukm surgan O‘g‘uzxon davrida ham turkcha “tamg‘a” so‘zi aynan shu ma’noni bildirar edi. XII asrning mashhur tarixchisi Rashiddin Hamadoniy “Tanlangan tarixlar” nomli kitobida shahodat berishicha, O‘g‘uzxon o‘z mol-mulkini o‘g‘illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo‘lib, in‘om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o‘zlarining xonlik tamg‘alariga ega edi.

Ichda o‘qish.

Topshiriq. Matni ichingizda o‘qing. Ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni daftaringizga yozib boring.

Lug‘at ishi. So‘zlarning ma’nosi o‘quvchilar bilan birga izohlanadi.

O‘qituvchi tomonidan baynalmilal so‘zlarning izohi o‘quvchilarga tanishtiriladi.

Tili, qalb ko‘zi ochildi – mustaqillik tufayli erkin fikrlab, fikrimizni erkin ayta oldik

ko‘zimiz ochildi – haqiqatni tushundik

sohibqiron – shoh, podshoh

alayhissalom – payg‘ambar

bug‘doy zahirasi – g‘amlab qo‘yilgan bug‘doy

abadiy – mangu, doimiy

dunyo darvozasi – dunyoga chiqiladigan joy (shahar)

abadiy mulk – doimiy saqlanadigan mulk

O‘quvchilar so‘zlar izohini daftarlariga yozib oladilar. Matnni qismlarga bo‘lib o‘qitish. Asar to‘rt qismga bo‘linadi va to‘rt o‘quvchiga o‘qitiladi.

– O‘zbekiston rivojlanib borayotganini asoslash uchun asarni o‘qing. Tarmoqlash usulida asoslang.

Javob namunasi:

– O‘zbekistonda yoshlarga qanday sharoitlar yaratilgan? Asardan shu o‘rinni topib o‘qing.

Matnda charaqlab turgan, qutlug‘, himmat, oliyjanoblik, fidoyi, afsonaviy, Humo, gerb so‘zlari shu matndagina ijobiy bo‘yoqdorlik kasb etishi o‘qituvchining suhbatida ochiladi.

Charaqlamoq – yaltiramoq, yarqiramoq, porlab, nurlanib turmoq³⁵.

Qutlug‘ – qut-barakali³⁶.

Himmat – g‘ayrat-shijoat, jo‘shqinlik; harakat, hafsala, qunt³⁷.

Oliyjanoblik – oliyjanob xususiyatlarga ega³⁸.

Afsonaviy – faqat afsonalarda mavjud bo‘lgan, olamda yo‘q, xayoliy³⁹.

Humo – (ezgulik ramzi bo‘lgan afsonaviy qush) kimning boshiga qo‘nsa yoki soyasi tushsa, u kishi eng baxtli bo‘ladi, davlat va saltanatga erishadi, deb e‘tiqod qilingan afsonaviy qush⁴⁰.

Gerb – davlat, shahar, tabaqa, urug‘ va shu kabilarning bayroq, pul, muhr kabilarda tasvirlangan alohida farqli belgisi⁴¹.

³⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 4-tom. – Toshkent: O‘ME, 2008. – B.460.

³⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 5-tom. – Toshkent: O‘ME, 2008. – B.391.

³⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 5-tom. – Toshkent: O‘ME, 2008. – B.530.

³⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 3-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B.112.

³⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 1-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B.118.

⁴⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 5-tom. – Toshkent: O‘ME, 2008. – B.561.

⁴¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. 1-tom. – Toshkent: O‘ME, 2006. – B.495.

Yuqoridagi soʻzlar bizning gullab-yashnayotgan, buyuk va muqaddas Vatanimizda ijobiy boʻyoqdorlik ifodalaydi, mamlakatimiz sifatini ulugʻlaydi, tengi yoʻq maskanimizni behad tengsiz ekanligini qalbimizda jo qiladi.

Savol va topshiriqlar ustida ishlash:

1. Gerb deganda nimani tushunasiz?
2. Oʻzbekiston Respublikasining Davlat gerbi qaerda va qachon tasdiqlandi?
3. Oʻzbekiston Respublikasining Davlat gerbining koʻrinishi ifodalangan oʻrinni matndan topib oʻqing.

4. “Gerb soʻzi qanday maʼnoni bildiradi? Matndan buni topib, daftaringizga koʻchirib yozing.

5. Oʻzbekiston Respublikasining Davlat gerbining ramzini chizing.

8. Darsda oʻrganilganlar yuzasidan umumlashtiruvchi suhbat:

Bugungi oʻqish darsi sizda qanday taassurot qoldirdi?

Darsda oʻzingiz bilmagan nimalarni bilib oldingiz?

Oʻylang, nima tufayli biz buyuk allomalarimizni tanidik?

Allomalarimiz bizlarga qanday miliy-madaniy meros qoldirgan?

Oʻzbekistonning haqiqiy egalari kimlar?

Oʻqituvchi oʻquvchilar javobini umumlashtiradi.

1992- yil 7- dekabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qoʻyildi. Shu tariqa oʻzbek tili mustaqil davlatimizning bayrogʻi, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yoʻli bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi⁴².

9. Uyga vazifa. Asarni ifodali oʻqishga va qayta hikoyalab berishga tayyorlanib kelish. Oʻqish daftariga Oʻzbekistonning mustaqillikka erishgan sanasini va allomalarimizning nomini yozib kelish.

10. Moddiy va maʼnaviy olam – insonning qoʻsh qanoti. Ruhiiy va moddiy olam. Inson timsolida maʼnaviy va moddiy alomatlar uygʻunligi. Xalqimizning

⁴² Karimov I.A. Yusak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008. – B.85.

asrlar davomidagi orzu-maqсадlari. Iqtisodiy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish jarayonlarining uyg'un rivojlanishi. Mustaqillik nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy imkoniyatlar manbai. Bozor iqtisodiyotining joriy etilishi jamiyat a'zolarining o'z salohiyati va iste'dodini ruyobga chiqarishi uchun teng imkoniyatlar va erkinlik muhitini yaratib berish zarurati. Xususiy mulkning ma'naviy jihatlari. Moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib tarzda rivojlantirilayotgani siyosiy-ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam garovi kabi fikrlar asosida dars o'qituvchining yakunlovchi gapi bilan tugatiladi.

Yuqoridagi savollarni har bir O'zbekiston fuqarosi o'z-o'ziga berishi mumkin. Mustaqillik tufayli dinimiz, tilimiz, asosiysi, o'zligimiz o'zimizga qaytdi. Biz o'tmishda yashab o'tgan otalarimizni ota deyish, ular bilan faxrlanish tuyg'usini sezdik. Amir Temur, imom Buxoriy, Termiziy, Naqshbandiy, Bobur kabi ajdodlarimiz qoldirgan meroslarni o'qish va o'rganishga kirishdik, bu dono ko'rsatmalarni o'zimizga dasturulamal qilib oldik.

XULOSA. UCHINCHI SINF O‘QISH DARSLARIDA USLUBIY BO‘YOQDOR SO‘ZLAR BILAN ISHLASHNING MA’NAVIY-AXLOQIY AHAMIYATI

Ta’lim jarayonida o‘quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, o‘z fikri, g‘oyalarni o‘zgalarga etkaza bilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirish, boshqarishi darkor. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy ma’naviy tarbiyasi bilan shug‘ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an’analarimizga hurmat ona-Vatanga muhabbat tuyg‘usi kabi zaruriy hikmatlarni singdira bilishi lozim.

O‘quv mashg‘ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, o‘quvchilarni dars jarayonida maqsadni boshqara olish o‘qituvchilik faoliyatining bosh mezonini, deb qaralmoqda.

Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo‘llash, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi o‘rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta’minlash, mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir.

Mustaqillik tufayli yuz berayotgan hozirgi yangilanishlar, jamiyatimiz taraqqiyoti va istiqboli, ta’lim sohasidagi islohotlar umumjahon andozalariga mos keladigan, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog‘liq.

Inson o‘zining butun umri davomida dunyoqarashga doir yangidan yangi masalalarni hal qilish bilan shug‘ullanadi.

Pedagoglar va ota-onalar olida shundan bir savol tug‘ildi: maktablarda, ayniqsa quyi sinfdagi bolalarda ilmiy dunyoqarashni vujudga keltirishni real maqsad deb bo‘ladimi? O‘quvchilar shu qadar murakkab g‘oyalarni anglay oladilarmi? Albatta, ilmiy dunyoqarashni vujudga keltirish umuman o‘rta maktablarda amalga oshiriladigan ish. Ilmiy dunyoqarashning birinchi bosqichi boshlang‘ich sinfdan boshlanadi.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish va shakllantirish asosan ikki yo'l bilan amalga oshiriladi.

1. Dars jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish va tarbiyalash.

2. Sinfidan, maktabdan tashqari, ya'ni darsdan tashqari bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya.

Maktablarda o'quvchilar matematika, fizika, geografiya, botanika, zoologiya, kimyo va biologiya kabi dunyoviy bilimlarni o'zlashtirish orqali, shuningdek, tarix, ijtimoiy fanlar, ayniqsa, ona tili, adabiyot darslarida shoirlarning ijodiy faoliyatlarini o'rganish orqali ularda ilmiy dunyoqarash tarkib topadi va shakllanadi.

Ikkinchidan esa, bolalar darsdan tashqari paytlarda kitoblar o'qish, darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, sherxonlik kechalari, turli xil ilmiy baxslar, munozaralar, tortishuv, savol-javob kechalari tashkil etish, ilmiy-ommabop filmlarni tomosha qilish, fan to'garaklariga qatnashi va shu singari ishlar orqali erishadilar.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashda tarbiyaning turli xil yo'l va usullari hamda vositalaridan foydalaniladi. Ular ishontirish, tushuntirish, ibrat, namuna, e'tiqod shakllantirish, rag'batlantirish, suhbat, leksiya, ilmiy ma'ruzalar kabi tarbiya usullaridan unumli foydalanish muhimdir. Bulardan tashqari olimpiadalarda ishtirok etish, kitobxonlar anjumanida ishtirok etish, turli xil ko'riklarda qatnashish, ilmiy adabiyotlar, gazetalar o'qish, radio-televedeniya ko'rsatuvlari, turli xil ko'rgazmali, ilmiy agetasiya va axborotlardan xabardor bo'li va hokazo.

Maktab o'quvchilarini siyosiy-g'oyaviy ruhda tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini shakllantirishni, o'quvchi yoshlarda ilmiy dunyoqarash bilan uyg'undashgan holda amalga oshirish lozim bo'ladi. Siyosiy-g'oyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi O'zbekiston Prezidenti amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga sodiqlik, uni tushunib etishdir. O'zbek xalqining jangovar va

mehnat an'analarini davom ettirishga qobil bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ularni o'zining siyosiy bilimlarini muntazam oshirib borish, ularda sohta ekstremistik ideologiya g'oyalariga qarshi va shuningdek, chin vatanparvar qilib tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston hukumati yosh avlodga siyosiy-g'oyaviy tarbiya berishni birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan vazifa deb hisoblaydi.

Siyosiy-g'oyaviy tarbiyaning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'quvchilarni siyosiy bilimlar bilan qurollantirish.
- Ularda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish va shakllantirish.
- Yoshlarni siyosiy e'tiqodli va siyosiy hushyor qilib tarbiyalash.
- O'quvchilarni xalqaro voqealarning mohiyatini, xalqaro hayotdagi masalalarni hal qilish, Prezidentimiz va davlatimiz siyosatining rolini tushunadigan kishilar qilib tarbiyalash.

O'zbek xalqining umumiy shaklda o'z mehnati, va jamoa mehnatining tutgan o'rniga to'g'ri baho berishga o'rgatish.

- Ijtimoiy va siyosiy tushunchalari doirasini doimo kengaytira borish.
- Ijtimoiy hayot hodisalarining mohiyatini to'g'ri tushuntirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish.
- Xalqaro voqealarga to'g'ri baho berishga o'rgatish.
- Yoshlarni har qanday yod ideologiyaga qarshi, har qanday diniy ekstremizmga islomiy fundamentalizm g'oyalariga qarshi kurasha oladigan kishilar qilib tarbiyalash.

- Yoshlarni o'z ona vataniga sodiq, chin vatanparvar qilib, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqealarga befarq qaramaslik hislarini tarbiyalashdan iboratdir. Bu ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning tilga hushyorliklarini ta'minlash, uslubiy bo'yoqdor so'zlarni to'la his ettirish biz muallimlarning asosiy faoliyatimiz sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q. va boshq. O‘qish kitobi, 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
2. Ashrapova T. Uchinchi sinfda o‘qish darslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
3. Ashrapova T., Odilov M. Ona tili metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.
4. Boshlang‘ich sinf davlat ta’lim standartlari. Boshlang‘ich ta’lim// 2005. – №5.
5. Boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturi. – Toshkent, 2008.
6. Homidiy H. va b. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 300 b.
7. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi// Xalq so‘zi. 2011- yil 22- yanvar, №16 (5183)
8. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent: O‘zbekiston. – 1994.
10. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 14 b.
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 528 b.
12. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O‘zbekiston. – 1995.
13. Karimov I.A. Yusak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
14. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.

15. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
16. Matchonov S., Shojalilov A. va boshq. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraph service, 2011. – 240 b.
17. Mirzayev I. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki ijodini o‘rganish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
18. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – 216 b.
19. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
20. Sayidahmedov N. Noan‘anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 98 b.
21. Umarova M., Hakimova SH. O‘qish kitobi. 3-sinf. – Toshkent: Ch‘lpon, 2005. – 224 b
22. Vazirlar Mahkamasining “Davlat tili” Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlar. Xalq ta‘limi, 1997. – №1.
23. Yoqubjonova O. Sinfdan tashqari ishlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
24. Yusupov M. O‘qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
25. Yusupov M. va boshq. 2-sinf o‘qish kitobi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
26. Yusupova Sh. Noan‘anaviy dars – davr talabi. – Andijon, 2002. 54 b.
27. Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
28. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
29. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
30. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli. – Toshkent: O‘ME, 2006-2008.

LUG‘AT

Ijobiy ma‘noli emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar

<i>abadul-abad</i>	<i>jilmaymoq</i>	<i>oftobsiymo</i>
<i>ajib</i>	<i>jonbaxsh</i>	<i>oqsoq</i>
<i>azamat</i>	<i>zako</i>	<i>og‘ush</i>
<i>alvido</i>	<i>inson</i>	<i>payvasta</i>
<i>afsungar</i>	<i>ketvorgan</i>	<i>pariro‘y</i>
<i>buzrukvor</i>	<i>koshona</i>	<i>parisiymo</i>
<i>vafot etmoq</i>	<i>kulcha</i>	<i>pishillamoq</i>
<i>gulbadan</i>	<i>lobar</i>	<i>porloq</i>
<i>daho</i>	<i>lolagul</i>	<i>purma‘no</i>
<i>diydor</i>	<i>malaksiymo</i>	<i>rahnamo</i>
<i>dilbar</i>	<i>mard</i>	<i>sayqal bermoq</i>
<i>dildor</i>	<i>marhabo</i>	<i>suluv</i>
<i>diloro</i>	<i>mahluqo</i>	<i>surur</i>
<i>durafshon</i>	<i>mehribon</i>	<i>so‘lqildoq</i>
<i>do‘mbillamoq</i>	<i>miriqmoq</i>	<i>tabassum</i>
<i>do‘mboq</i>	<i>momoqaymoq</i>	<i>tabassum qilmoq</i>
<i>do‘ndiq</i>	<i>mumtoz</i>	<i>tamtam</i>
<i>do‘ndirma</i>	<i>munavvar</i>	<i>tannoz</i>
<i>do‘ndirmoq</i>	<i>mo‘ysafid</i>	<i>tanti</i>
<i>javdiramoq</i>	<i>nurafshon</i>	<i>telba</i>
<i>jajji</i>	<i>nuroniy</i>	<i>umumbashariy</i>
<i>jamol</i>	<i>oyparcha</i>	<i>ustomon</i>
<i>jannat</i>	<i>olamshumul</i>	<i>farishta</i>
<i>jasad</i>	<i>olijanob</i>	<i>fusunkor</i>
<i>jafokash</i>	<i>oliymaqom (zot)</i>	<i>xizr</i>
<i>jilvakor</i>	<i>oppoq</i>	<i>xirom</i>

<i>xushsurat</i>	<i>qazo qilmoq</i>	<i>hayratomuz</i>
<i>chehra</i>	<i>qalqmoq</i>	<i>halok bo'lmoq</i>
<i>shirin</i>	<i>qoyil</i>	<i>hassos</i>
<i>o'ktam</i>	<i>qoyilmaqom</i>	
<i>qabriston</i>	<i>g'azabkor</i>	

Salbiy ma'noli emotsional-ekspressiv so'zlar

<i>ablah</i>	<i>beso'naqay</i>	<i>daroz</i>
<i>ajdar</i>	<i>betavfiq</i>	<i>dev</i>
<i>ajdaho</i>	<i>betayin</i>	<i>dovdir</i>
<i>ajina</i>	<i>betamiz</i>	<i>do'zax</i>
<i>azroil</i>	<i>behayo</i>	<i>do'laytirmoq</i>
<i>alvasti</i>	<i>bidirlamoq</i>	<i>do'ng'illamoq</i>
<i>andi</i>	<i>bobillamoq</i>	<i>do'ndirmoq</i>
<i>anqaymoq</i>	<i>boplamoq</i>	<i>ebto'yimas</i>
<i>anqov</i>	<i>bulg'amoq</i>	<i>jallob</i>
<i>asfalasofin</i>	<i>bo'laymoq</i>	<i>jahannam</i>
<i>aft</i>	<i>bo'shahgan</i>	<i>jinni</i>
<i>ahmoq</i>	<i>vaysamoq</i>	<i>jirkanmoq</i>
<i>badbashara</i>	<i>valakisalang</i>	<i>jirkanch</i>
<i>badburush</i>	<i>valaqlamoq</i>	<i>jodugar</i>
<i>badkirdor</i>	<i>valdiramoq</i>	<i>juvonmarg</i>
<i>badqovoq</i>	<i>valdirvasar</i>	<i>jo'namoq</i>
<i>barzangi</i>	<i>vatanfurush</i>	<i>zormanda</i>
<i>basir (ko'r)</i>	<i>garang</i>	<i>zumrasha</i>
<i>bashara</i>	<i>garangsimoq</i>	<i>iblis</i>
<i>bezgak</i>	<i>go'riston</i>	<i>ig'vogar</i>
<i>bezillamoq</i>	<i>go'rso'xta</i>	<i>ijirg'anmoq</i>
<i>bezraymoq</i>	<i>dajjol</i>	<i>ilon</i>
<i>benomus</i>	<i>daydimiq</i>	<i>imonsiz</i>

<i>irjaymoq</i>	<i>merov</i>	<i>pismiql</i>
<i>irillamoq</i>	<i>miyonqi</i>	<i>razil</i>
<i>irshaymoq</i>	<i>mijg'ov</i>	<i>savil</i>
<i>itvachcha</i>	<i>ming'aymas</i>	<i>sadaqa</i>
<i>ityaloq</i>	<i>ming'illamoq</i>	<i>sakillamoq</i>
<i>iflos</i>	<i>mishiql</i>	<i>sang'i</i>
<i>ishshaymoq</i>	<i>moxov</i>	<i>sanqi</i>
<i>kavlashtirmoq</i>	<i>mujmal</i>	<i>sanqimoq</i>
<i>kazzob</i>	<i>munofiq</i>	<i>sarqit</i>
<i>kalla</i>	<i>murda</i>	<i>satang</i>
<i>kallakesar</i>	<i>murdor</i>	<i>serraymoq</i>
<i>katalak</i>	<i>murtad</i>	<i>sil</i>
<i>kelgindi</i>	<i>muttaham</i>	<i>sovuq (xunuk)</i>
<i>kofir</i>	<i>naynov</i>	<i>suqilmoq</i>
<i>kuydirgi</i>	<i>nafrat</i>	<i>sulloh</i>
<i>ko'ksov</i>	<i>noinsof</i>	<i>surbet</i>
<i>ko'mmoq</i>	<i>nomard</i>	<i>sust</i>
<i>ko'rnamak</i>	<i>nonko'r</i>	<i>so'qqabosh</i>
<i>landovur</i>	<i>notayin</i>	<i>so'ppaymoq</i>
<i>latta</i>	<i>noshud</i>	<i>so'tak</i>
<i>lattachaynar</i>	<i>ovsar</i>	<i>talmovsiramog</i>
<i>la'nati</i>	<i>oqpadar</i>	<i>tamiz</i>
<i>lo'ttiboz</i>	<i>olifta</i>	<i>tasqara</i>
<i>makkor</i>	<i>olchoq</i>	<i>ta'na</i>
<i>malay</i>	<i>omi</i>	<i>tentak</i>
<i>mal'un</i>	<i>ordona</i>	<i>tentiramoq</i>
<i>maraz</i>	<i>ochofat</i>	<i>tepkilamoq</i>
<i>mahmadona</i>	<i>oshqovoq</i>	<i>tiyilmas</i>
<i>megajin</i>	<i>pildiramoq</i>	<i>tirjaymoq</i>

<i>tirrancha</i>	<i>yalmog'iz</i>
<i>tirriq</i>	<i>yaloqi</i>
<i>tullak</i>	<i>yaramas</i>
<i>tumshuq</i>	<i>o'g'ri</i>
<i>turq</i>	<i>o'g'riboshi</i>
<i>tushirmoq (emoq)</i>	<i>o'qraymoq</i>
<i>to'ng'illamoq</i>	<i>o'laksa</i>
<i>to'nka</i>	<i>o'tmaslashmoq</i>
<i>to'pori</i>	<i>o'shqirmoq</i>
<i>urmoq (emoq)</i>	<i>qarg'amoq</i>
<i>uchmoq (qiziqmoq)</i>	<i>qiyonchiq</i>
<i>fohisha</i>	<i>qiltiriq</i>
<i>xiyonatkor</i>	<i>qul</i>
<i>xoin</i>	<i>qulamoq</i>
<i>xudbin</i>	<i>qo'shmachi</i>
<i>xudobexabar</i>	<i>g'alamis</i>
<i>chaqchaymoq</i>	<i>g'alcha</i>
<i>chiyillamoq</i>	<i>g'ar</i>
<i>chimirilmoq</i>	<i>g'udranmoq</i>
<i>cho'tir</i>	<i>havolanmoq</i>
<i>shayton</i>	<i>hazar qilmoq</i>
<i>shang'illamoq</i>	<i>ham-ham qilmoq</i>
<i>shapshak</i>	<i>hangramoq</i>
<i>sharmanda</i>	<i>harom</i>
<i>egov</i>	<i>harom-harish</i>
<i>yuvuqsiz</i>	<i>haromxo'r</i>
<i>yuvundixo'r</i>	<i>hurpaymoq</i>
<i>yugurdak</i>	<i>ho'kiz</i>
<i>yulqimoq</i>	